

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqqan
boshlagan

2025-yil 22-avgust
№34 (3148)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz



25th CISM
World Military Triathlon
Championship
Samarkand
Uzbekistan
2025

12-13

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

Ko'hna tarix

Amir Temur 35 yil hukmronlik qildi, tarix uchun bu juda qisqa davr, lekin asrlar o'tsa hamki, uning Turon davlatini qayta tiklab, ulkan saltanat qurgani va Temuriylar Uyg'onish davriga asos solib, nafaqat o'z ota makoni, balki butun dunyo, odamzod uchun ulkan iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, diniy va boshqa ishlarni ana shu qisqa davrda amalga oshirgani dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda.



Buyuk hukmdor o'zini Allohning Yerdagi soyasi, oddiy bandasi, deb bilar, qonunlardan sira chetga chiqmasdi. O'zi yozdirgan bitiktoshda ham o'zini xon, podshoh emas, balki Turon sultoni, deb atagan edi, xolos.

Haqiqatan ham uning 35 yillik qisqa, ammo shukuhli davlatchilik faoliyatini o'rganish bugunimiz uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Uning davlat boshqaruvi ishlari 1370-yildan boshlangan bo'lsa, shavkatli, shonli avlodlari tomonidan to 1858-yilgacha, qariyb 400 yildan oshiq davom etdi.

Adolat va sulh Amir Temurning siyosatini bosh mezoni edi. Bu masala mohiyati Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ancha keng ochib ko'rsatilgan. Xususan: **"Agar shoh adolatparvar bo'lsa, aholisida ham adolat asarlari bo'ladi"**, deb yozgan edi.

Sohibqironning qo'lidagi uzukda ham **"Rosti rusti"**, ya'ni so'zma-so'z tarjimasida "Haqgo'y bo'lsang, najot topasan!" sof o'zbekchasi "Kuch adolatdadur!" degan bitik mavjud bo'lganki, u ham davlat boshqaruvida adolat va qonun bosh mezon bo'lganini ifoda etadi. Va aynan ana shu borada bu zotning o'ziga nisbatan o'ta talabchan bo'lganini "Temur tuzuklari"da yorqin tasdig'ini ko'ramiz. **"Odam Atodan boshlab to Xotamgacha va undan hozirgi damgacha o'tgan sultonlarining qonunlarini va turish-turmushlarini donolardan so'rab surishtirdim, – deyiladi unda. – Davlatlarining tanazzuliga uchrashi sabablarini o'rgandim va davlat-u saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim"**.

AMIR TEMURNING BUYUK XIZMATI shuki, u Chingiziylar zulmi ostida parchalangan, buzilgan ko'p mingyillik tarixga ega Turon

davlatchiligini qayta tikladi hamda bu hududni tinch, osoyishta zaminga aylantirdi. Tarixchilar yozadiki, Amir Temur adolat o'rnatishda shu darajada ahd qildiki, uning hukmronlik qilayotgan hududida, kerak bo'lsa, fil pashshaga salom berardi. Nizomiy Shomiy esa mamlakatning u chekkasidan bu chekkasigacha, hatto ayol savdogarlar, bolalar ham mol-u mulk bilan savdo qiladilar, lekin biror kimsa ularning bir qora chaqasiga ham daxl qilolmaydi, deya qayd etgan.

Hind olimi Satish Chandra Amir Temurning siyosiy faoliyatiga yuksak baho berib, uning amalga oshirgan buyuk ishlaridan biri **erkin va sivilizatsiyali institut sifatidagi davlatchilik g'oyasini asoslash va himoya qilish bo'lganini** alohida ta'kidlab o'tgan.

Davlat idoralarida farmonlar o'ziga xos yangi – **sarnoma** usulida joriy qilindi. Bu usul Amir Temurni hukmdor sifatida namoyon etardi.

Amir Temur o'z davri uchun boshqaruvning eng taraqqiyparvar bo'lgan an'alaridan biri **dargoh va devon boshqaruv tizimini** qayta tikladi. Dargoh qoshida maxsus kengash tuzdi: bu tizim arzbegi, tovachi, xojiblar, jibachilar, qushbegi, xazinador, xonsolar, bakovulboshi, kotib, munshi, bitikchi, farroshlar va boshqalar.

Dovon tizimida atigi 6 nafar asosiy vazir bor edi:

- bosh vazir, ya'ni mamlakat va aholi ishi bo'yicha vazir;
- harbiy ishlar vaziri;
- soliq yig'ish va mulk ishlari vaziri;
- moliya;
- huquq;
- zabt etilgan mamlakatlar bo'yicha vazir.

Nima uchun shunday ulkan davlatni ozchilik boshqargan. Bu tasodifmi? Yoki bu ham Amir Temurning donishmandligimi? Bu savolga u zotning o'zi biror gap aytganmi? Albatta, aytgan! Amir Temurdek daho hukmdor

davlatchilikning o'yinchoq emasligini, uning bitta qil tomiriga ham juda jiddiy va o'ta yetarli darajada e'tibor berishini talab qilgan va o'zi ham shu yo'sinda ish yuritgan. **"Davlatni aqlli bo'lgan ozchilik boshqaradi"**, deb yozgan. Katta-kichikligini qo'ya turaylik, 27 davlatni birlashtirgan ulkan saltanatni atigi 8 tagina vazir ishtirokida boshqarilgani biz hali davlatchilikning juda ko'p qirralarini o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

KO'RAMIZKI, Amir Temur hukmdorlik faoliyati juda serqirra: uning adolatli siyosati, sulh asosida qurilgan o'ziga xos diplomatiyasi, buyuk bunyodkorlik ishlari, ilm-fan sohasidagi amalga oshirgan ishlari, olimlar, tarixchilar, adabiyot vakillari, ta'lim, tibbiyot, hunarmandchilik, dehqonchilik, ayollar, onalar va bolalarga, nafaqador va yetim-yesirlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillari, islom dini rivoji va sayyidlar, ulamo-fozillarga ehtiromi hamda boshqalar, ya'ni ular juda ko'p, son-sanoqsizdir.

Hech qachon ortidan vayronalar qoldirmagani ham biz uchun katta sharaf. Chingiziylar vayron etgan Samarqand-u Buxoroyi sharif, Termiz-u Balx, Xuroson-u Ozarbayjonni qayta tikladi. Baylaqon shahrini qurdi, Shohruxiyani obod shaharga aylantirdi, Bag'dodni, Urganchni qayta-qayta obod etdi, bir joyda bir buloq ko'rsa, atrofini go'zal imoratlar bilan bezadi. Betakror poytaxt Samarqandni dunyoning ilm va fan markaziga aylantirdi. Samarqand desalar shoirlar-u olimlar, adabiyot ahli bu yerdagi shart-sharoitlarga havas qilardi va shu shaharda ilm olishni o'zlari uchun faxr sanardi. Samarqandda atrofidagi 14 va undan ko'p bog'larda xalq bemalol sayr qilishi, mevalaridan bemalol tatib ko'rishi mumkin edi. Bu to'g'rida ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo hayrat bilan yozgan, eng muhimi, bu voqealarni u ko'zi bilan ko'rgan edi.

Amir Temurning adolatli davlatchilik ishlariga xolisona baho bergan tarixchilar uning olamshumul insoniy ishlarini bot-bot takrorlab o'tishgan. Masalan, iqtisodchi olimlarning fikricha, agrar munosabatlar



"...Bu kitob siyosatchi qo'liga tushgudek bo'lsa, u poytaxtdan uzoq bo'lgan turli mamlakatlarni qanday tadbirlar bilan idora qilish, bir xil qonunlarga bo'ysunish, saroy fitnalari va ayonlar yuzasidan aytilgan fikrlardan o'ziga dars olishi mumkin".

Jozef UAYT

mavzusi bo'lgan **yer rentasi, tabaqali monopoliya ta'limoti** asoschisi Adam Smit va boshqalar emas, aynan Amir Temurning ekanini izohlashga hojat yo'q. Biroq hozirgi chop etilayotgan iqtisodiy nazariya darsliklarida bu haqda lom-lim deyilmayotgani kishini ajablantiradi.

Ozarbayjonning Shabustar qishlog'idan o'tayotib, birgina Mahmud Shabustariyning xotirasi hurmati uchun ulkan qo'shinni to'xtatib, uning qabrini obod go'shaga aylantirdi hamda shu qishloq ahlining har biriga besh misqoldan, jami qariyb 20 kilo oltinni tortiq qilgan edi.

Hindistonning go'zal va betakror o'lkasi **Kashmir viloyati ahli ma'naviy olamini boyitish uchun** o'sha davrning buyuk donishmandi, avliyosi Ali Hamadoniyni huzuriga chaqirib, uni 1374-yilda 700 nafar shogirdi bilan o'sha tomonga jo'natgan edi.

BOSHQA TOMONI Amir Temur davlatni qonuniy boshqarish uchun “Temur tuzuklari”ni farzandlari, avlodlari, zurriyotlari uchun ham nodir qo'llanma sifatida qoldirdi. Shu bois bu noyob asar uzoq yillar **maxfiy saqlandi**. Chingizxon ham o'zining “Yaso” davlatni boshqarish to'plamini sandiqda qorovullar yordamida ko'zdan yashirin saqlagan. “Temur tuzuklari” ham to XVIII asrning ikkinchi yarmigacha faqatgina Temuriylar foydalanadigan maxfiy qo'llanma sifatida xizmat qildi. Buning isboti uchun bir-ikki dalilni keltirib o'tish talab etiladi.

1. Eng birinchi manbani “Temur tuzuklari”ning o'zida uchramiz. Amir Temur yozadi: **“...saltanat qurish, davlat tutish bobida o'zim qo'llagan ishlarni bir necha Tuzukka (qonunlarga) bog'ladim va saltanatni boshqarish haqida qo'llanma yozib qoldirdim, toki farzandlarim, avlodim va zurriyotimdan bo'lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin”**.

2. Ingliz zobiti, sharqshunosi Uilyam Devi 1779-yil 24-oktabrda Angliyaning Glochester shahrida yashab turgan paytida yozgan “Tuzuklar asliyat masalasi” maqolasida quyidagicha jumlar uchraydi:

“...Hind hukmdori Shoh Olam kutubxonasida “Temur tarixi va tuzuklari”ning chiroyli ko'chirma nusxasi mavjud va shoh uni alohida e'tibor bilan saqlaydi. Menga bo'lgan iliq munosabati sababli o'z kutubxonasidagi barcha kitoblardan foydalanishim uchun ruxsat bergan, ammo faqatgina ushbu kitobni so'ramasligimni oldindan ogohlantirgandi”.

DEMAK, Amir Temurning buyuk avlodlari ham bu kitobni ko'z qorachig'idek asrab-avaylab, yashirin saqlagan. Chunki o'sha zamonda davlatni boshqarish haqidagi bunday noyob qo'llanma o'zgalarning qo'liga tushib qolmasligi kerak edi. Angliyalik sharqshunoslardan yana biri **Jozef Uayt 1782-yilning 15-sentabrda** “Temur tuzuklari”ga yozgan “Muqaddima” so'z boshida **“...Bu kitob siyosatchi qo'liga tushgudek bo'lsa, u poytaxtdan uzoq bo'lgan turli mamlakatlarni qanday tadbirlar bilan idora qilish,**



“Odam Atodan boshlab to Xotamgacha va undan hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlarini va turish-turmushlarini donolardan so'rab surishtirdim, — deyiladi unda. — Davlatlarining tanazzuliga uchrashi sabablarini o'rgandim va davlat-u saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim”.

bir xil qonunlarga bo'ysunish, saroy fitnalari va ayonlar yuzasidan aytilgan fikrlardan o'ziga dars olishi mumkin”, deya alohida ta'kidlab o'tgan.

Nima uchun Angliyada o'sha kunlari, ya'ni 1588-yilda ingliz dramaturgi Kristofer Marlouga “Amir Temur” tarixiy sahna asarini yozish topshirildi va bu asar qirollik teatrining har yilgi ochilish mavsumida namoyish etila boshlagan edi. Amir Temur hurmati uchunmi? Agar biz shu savol bilan cheklansak, juda katta xatoga yo'l qo'ygan va tuturiqsiz javob bergan bo'lamiz.

Angliya o'sha paytda jahonga hukmronlik da'vosi bilan chiqayotganmidi?! Albatta, bu davoni avval asoslash kerak edi. Dunyoni boshqarish faqat bir davr, bir makon kishilarning o'y-fikrlari, g'oyalari bo'lmagan. Har bir hukmdor va har bir davr siyosatchilari o'zlarining dunyoviy qarashlarini, g'oyalarini ilgari surib turishgan. O'tgan XX asrning boshlarida Yevropada “Hartlend”, AQShda “Rimland” dunyoni boshqarish g'oyalari tug'ildi va ular amalga oshirildi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyo iqtisodini boshqarish gegemonligi avj olib ketdi va bugungi kunda uning salbiy oqibatlari odamzod uchun juda katta fojialarni keltirib chiqardi. Ayni damlarda ham bu gegemonchilik shu darajada buzuq va boshi berk ko'chaga kirdiki, goho Nuh to'fonini o'ylasak, ko'zlardan uyqu ham qochib ketadi. Bugun shu bois yangi dunyo g'oyasi u yer, bu yerlarda o'z “nog'orasi”ni qattiqroq chalmoqda.

Materialistik dunyodan ko'ra, ruhoniyaat dunyosi juda xavflidir. Uning bir tomiri uzilsa, ulkan falakda yagona va bitta bo'lgan ona sayyoramiz aylanish, gravitatsiya qonunlariga darz ketib, ulkan fojialarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois AQSh, Xitoy, Fransiya, Yaponiya va boshqa qator mamlakatlarda ilm-fan asosida yangi texnik taraqqiyotga zo'r berilib, yana koinotni o'zlashtirish ishiga bosh masala sifatida qaralmoqda. Jahon taraqqiyotidan orqada qolmasligimiz uchun ham buyuk sohibqiron Amir Temurning **“Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidur, hayotni yaratuvchi murabbiydir”, “Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqar”, “O'zing bilan kengash”, “Boshqalar bilan mashvarat-u maslahat qil”, “Hushyorlig-u mulohazakorlik bilan qaror chiqar”, “Ehtiyotkor bo'l”, “Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltiriladi”, “Azmi qat'iy, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, “Bu dunyoning boshi ham, oxiri ham ilmdir”**, degan shu va boshqa purma'no so'zlari biz uchun oltin va bebaho vasiyatlaridir. Vasiyat muqaddas hisoblanadi va unga amal qilinadi.

Bugun aynan ma'naviyatimizni buzmoqchi bo'lgan g'arazgo'y kuchlar juda ko'p. Bu buzg'unchi kuchlar oilamizgacha kirib borib, farzandlarimiz tarbiyasini buzib, ularni ilmsiz va notavon kimsalarga aylantirishga harakat qilayotgani ham bor haqiqat.

TARIXDA BIZ KO'P NARSA YO'QOTDIK va bugun

ma'naviyatimizni yo'qotishga hech haqqimiz yo'q. Shu bois mamlakatimizdagi barcha muzeylarda seshanba va juma kunlari maktab o'quvchilari uchun muzeylarga kirish bepul qilib qo'yilgan. Xususan, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ham seshanba, juma kunlari ota-onalar, ustozlar va jajji bolajonlar bilan liq to'la bo'ladi. Albatta, bugungi tomoshabinning saviyasi juda baland. Shuning uchun muzey rahbariyati, olimlar jamoasi, xodimlari zamon talablari asosida ish yuritishga harakat qiladi. Masalan, qo'l telefoni yordamida Amir Temur siymosi jonlanib, buyuk hukmdorning o'z tilidan tarjimayi holini eshitish yosh avlodni nafaqat u zotning davlatchilik ishlaridan xabardor etishga, balki yoshlarimizning ixtirochilikka, texnik taraqqiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirayotgani aniq. Yoki robot-giddan foydalanish ham ko'zda tutilmoqdaki, bu ham muzeyga tashrif buyuruvchilar uchun yana bir qulaylik bo'lishi mumkin.

Qolaversa, muzey deganda ko'pincha faqat eksponatlar ko'z oldimizga keladi. Ammo Temuriylar tarixi davlat muzeyida juda katta olimlar jamoasi har yili o'nlab ishlarni amalga oshiradi. Xususan, yangi topilmalar ham shu yerning o'zida, arxeologiya bo'limida ilmiy o'rganiladi va ularning kimyoviy tarkibidan tortib, xattotlik belgilarigacha yetuk arxeolog mutaxassis nazaridan o'tkaziladi. Ilmiy jamoa esa jahon temurshunos olimlari bilan hamkorlik qilib, har yili bir qancha tadbirlar, ilmiy anjumanlar o'tkazadi hamda nashr ishlarini amalga oshiradi. Keyingi yillarda “Amir Temur bibliografiyasi”, “Zafarnoma” kitoblarning va boshqa o'nlab ilmiy adabiyotlar aynan muzey ilmiy jamoasi tomonidan amalga oshirilgani diqqatga sazovordir.

OCHIG'I, BIZ XALQIMIZDAN KO'P QARZDORMIZ. Boshqani bilmadim-u, men shunday deb o'ylayman. Xususan, xalqimizga sohibqiron Amir Temur to'g'risida barcha ma'lumotlar qisqa, lo'nda tarzda ifodalangan qomusiy asar zarur. Mana, 6 yildirki, tariximiz bilimdonlari bilan “Amir Temur qomusi”ni nashrga tayyorlayapmiz. Kitobning birinchi qismida aynan Amir Temurning 1336-yildan to 1405-yil, vafotiga qadar bo'lgan hayotini qamrab olingan bo'lib, davlatchilik ishlari, safdoshlari, harbiy yurishlari, bunyodkorlik ishlari va boshqa qirralari haqida so'z yuritilgan.

UMUMAN OLGANDA, sohibqiron Amir Temurning davlatchilik borasidagi adolati, hamma narsa inson manfaati uchun, xalqni o'zidan rozi qilish, millatning ertasini o'ylash singari qarashlari va bu boradagi bajargan ishlari har tomonlama o'rganishga arziydi. Buyuk kelajak tarixni buyuk o'tmish yuzaga keltiradi, degan gaplar behuda emas.

To'lqin HAYIT, adib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi

Esse



Biz – kapitan Orifjon Mamajonov, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Hasan Sayhamatov (*operator*), kichik serjant Jahongir Xatomov (*haydovchimiz*) va kamina manzilga yetib borganimizda osmonda yulduzlar hamon kezib yurardi. Tonggi shabada toshlarga mayin urilib, go'zal ohanglarni jonlantirdi. Uzoqdan boyo'g'lining yoqimsiz va dag'al ovozi eshitilardi. Tog'lar xira-shirada yanada bahaybat va adog'i yo'qdek bo'lib ko'rinardi. Cho'qqilarda osilib turgan toshlar qalbgaga allaqanday qo'rquv va sitamlarni olib kirayotgandi.

– Keling, keling, – dedi III darajali serjant Alisher Rajabov, – yigitlar allaqachon o'quv nuqtalarida mashg'ulotoldi tayyorgarliklarni olib boryapti.

– Hali kun chiqmadi-ku, – dedim atrofga ishora qilib.

– Kunning nima aloqasi bor? – deb Alisher aka qoshlarini chimirib.

– Qabul qilingan reja bor. Unga ko'ra shug'ullanish shart.

– Bunday vaziyatda mashg'ulot olib borish birmuncha mushkul emasmi? – dedim tirjayib. – Qolaversa, yo'ldan kelyapmiz. Ozroq nafasni ham rostlab olaylik. So'ngra bir gap bo'lar.

Gapirib bo'lib, kapitanga najot istab qaradim. U ikki qo'lini beliga tirab, iyaklarini biroz ko'tarib, ko'zlarini yarim yumgancha beparvo boqardi.

– Bizni emas, o'zingizni o'ylayapsiz, – dedi Alisher aka do'rilloq ovozda. – Bilsangiz, tog' havosi – charchoqning dushmani.

– Tog'lar haqida tog'liklarga aytish shart emas, – dedim yumshoq ohangda.

Biz nurlari soniya sayin so'nib borayotgan chiroq ostida, tik oyoqda bir-birimizga qarab turardik. Oyoq ostidagi soyalarimiz o'yinga tushgandek, toblanib-toblanib ketardi.

– Agar hammasi tayyor bo'lsa, boshlaganimiz ma'qul, – deb gapga qo'shildi Orifjon aka. – Chunki qancha erta kirishsak, shuncha tez mashg'ulotlarni tugatamiz. Har holda bu yerga dam olgani kelmadik, to'g'rimi?

Daf'atan nam havoni his qildim. Etim junjikib ketdi. Tanamda chumoli o'rmalagandek bo'layotgandi. Yo'q, Mamajonovning mening taklifimga qarshi chiqqanidan emas, shunchaki qizib turgan tanam, mana endi tog'ning qasoskor shabadasini o'ziga shoshib simirayotgandi. Osmondagi yulduzlar shamchiroqdek sekin va navbati bilan o'chib, tong yorisha boshladi.

Mamajonov Alisher akaga qaradi:

– Nechta epizod qilib berasizlar, o'zi?

– Epizodlar ko'p, – dedi Rajabov qo'lidagi qog'ozga bir qarab olib, – lekin birinchi tog'oldi hududdagi o'rmon sharoitida harakatlanamiz. Bu juda qiziq va mashqatli bo'ladi. Ishonavering.

Harbiy xizmatchilar o'rik daraxti ostida turardi. Hammalari bir xil kiyimda: qo'llarida qurol, oyoqlar yelka kengligida ochilgan, boshlarini tik tutgancha bizga qarardi.

Tong sahar bo'lgani uchunmi, qushlar betartib sayrashardi. Ularning ovozi bir-biriga qorishib ketayotgandi. Xuddi uquvi yo'q pianinoning beo'xshov barmoqlari tartibsiz harakatlanayotgandek edi. Lekin kaklikning nari sayraganida uni darrov tanib, ajratib olgandim.

Harakat soy yoqasida kechdi. Guruh ikkiga bo'linib vazifa bajaradi. Oxirida belgilangan nuqtada uchrashishga kelishib olindi. III darajali

CHO'QQIDAN TOSH



Chunki bir tomonda, baland qoyalar, boshqa tomonda esa qalin o'rmonsifat bog'. Bu bir vaqtda ikki kemada kapitanlik qilishdek gap bilsangiz.

– Shturval to'g'ri tutilsa, toshli daryodan ham suzib o'tsa bo'ladi, – dedim qo'shimcha qilib. – Kapitanlar bungacha asliyatini anglagan bo'lsa bo'lgani.

– Ilmoqli gaplaringiz shunaqangi yoqadiki, asti qo'yaverasiz, – deya kapitan Mamajonov yo'lxaltani yelkasiga ilib oldi. Uning harakatlari tabiiylikni yo'qotgandi.

Mening ichimda esa alanga olgan hislar tilimning zanjirini uza boshladi.

Axir uzoqdan keldik. Bir muddat

kutilsa, tong yorishadi. Shundan keyin vazifalarni bajarish mumkin-ku. Ammo ular negadir shoshyapti, holbuki bemalolmiz. Vaqt yetarlicha ajratilgan – oldimizda butun boshli ikki kunimiz bor. Qolaversa, toshli yo'llar o'rganmagan har qanday o'tkir ko'zni ham darrov toliqtiradi. Tepaga qarab yurish oyoqning jonini olib qo'yadi. O'pkani tanadan siqib, tashqariga ulotiradi. Burun bu yerdagi bosimni birdan ko'tarolmaydi. Miyadagi tomirlar o'ynab, quyuk tuman ichra qolish mumkin. Bularni men allaqachondan – bolaligimdan bilaman. Axir toshlar bilan necha yil qasdma-qasd yashaganim bor.

– Unda kapitanlikni oling-da, shturvalni to'g'ri ushlab yuring, – dedi Alisher aka qiya qarab.

Quyosh nurlari shimol tomondagi baland qoya uchida yoyila boshlaganida biz doimiy yashash joyidan 15 kilometr uzoqlashib – o'quv joyiga yetib kelgandik.

Harbiy xizmatchilar o'rik daraxti ostida turardi. Hammalari bir xil kiyimda: qo'llarida qurol, oyoqlar yelka kengligida ochilgan, boshlarini tik tutgancha bizga qarardi.

Tong sahar bo'lgani uchunmi, qushlar betartib sayrashardi. Ularning ovozi bir-biriga qorishib ketayotgandi. Xuddi uquvi yo'q pianinoning beo'xshov barmoqlari tartibsiz harakatlanayotgandek edi. Lekin kaklikning nari sayraganida uni darrov tanib, ajratib olgandim.

Harakat soy yoqasida kechdi. Guruh ikkiga bo'linib vazifa bajaradi. Oxirida belgilangan nuqtada uchrashishga kelishib olindi. III darajali



serjant Rajabov yigitlarga taktik harakatlar rejasini tushuntirdi. Kim qayerda qolishi-yu, kim pistirmadan hujum qilishigacha belgilab berdi. Keyin mening yonimga keldi. Ikkimiz qurigan xas-cho'plarni bosgancha nari ketdik. Qolganlar aytilgan topshiriqni bajarish uchun jo'nadi.

– Boyagi gapim qattiq tegmadimi? – dedi Alisher aka menga samimiy qarab.

– U qanday maqsadni ko'zlab aytilganiga bog'liq.

– Bizning yurak hech qachon do'stlar uchun yomonlikka "in" bo'lmaydi, – dedi u do'rilloq ovozda.

– Qalblar tutashishi ham shunga bog'liq, – deb tirjaygan bo'ldim.

Lekin hamon jahlning o'tkir qilichi yuragimni timdalayotgandi. Biroq tongdan beri uning hukmida ekanimni sezib turardim. Va ma'shuqasi oldida mudom boshi egik oshiq o'laroq harakatlanishim o'ylarimni sotayotgandi.

Keyin o'n besh qadam naridagi tosh ustiga borib cho'kdim. Ko'p o'tmay, ortimdan Rajabov ham yetib keldi. Uning qadam tashlashi juda sokin va sassiz edi.



KO'CHDI



tosh ustida o'tirib, kelajakni o'zim tomonga chorlardim, uning menga qorong'i va tuman ichida bo'lgan ko'chalarida xayolan kezardim. Entikib-entikib, zavq olardim. Ko'zlarim tubidan istaklarim vulqoni otilib chiqardi-yu, biroq battol qo'llarim uni darrov sidirib tashlardi. O'shanda shaharning o'tkirligini sezmadim. Bu haqda tushuncham bo'lmagan. Aslida toshdan boshlangan mening orzularim. Uning qaridan chiqqan. Ha, xuddi boychechakdek. Faqat ko'klamsiz bo'y ko'rsatdi.

– Qo'limiz tuproq, vujudimiz loy, – deb Rajabovning so'zlarini pichirlab takrorladim.

Keyin ikkimiz bir vaqtda tosh ustiga cho'kdik. Yelkalarimiz bir-biriga shundoqqina tegib turardi. Tirik qalblarning ovozi o'zidek qalblarga mudom eshiltildi.

– Harbiylik otameros, – dedi Alisher aka. – Biz bu kasbsiz orzular qilolmaymiz.

– Vatanni shunchaki so'zda emas, amalda sevamiz deng, – dedim uning so'zini ilib ketib.

– Amalda.

Qasir-qusur o'qlar ovozi atrofni tutib ketdi. Tovush tog'larning qalbini ezib, yanada balandlashdi. Tepamizdan chag'-chag'lab, bir uya kaklik ko'tarilib, narigi qirning betiga borib qo'ndi. Bu shovqin faqat tinchlikni unutgan va bedor bo'lgan ko'ngillarga vahima solardi. Oyoqlarimiz ostida o'rmalab ketayotgan yarim qizil chumolilarning pinagi ham buzilgani yo'q. Ular o'zlari topgan donlarni uyalariga tortib ketyapti.

Yana atrof gumburlab ketdi. Bu safargi ovoz kuchliroq chiqdi.

– Ba'zida o'qlarning ovozidan qoyalarda turgan toshlar ko'chadi, – dedi Rajabov.

– Har qoya – bir Vatan, – dedim ro'paramizda ko'kka tutashib ketgan tog'larga termilib.

Orifjon aka tepamizda paydo bo'ldi. Uning yuzidan moshdek keladigan ter oqib tushayotgandi. Harbiy libosi jiqqa ho'l bo'lgan. Rangi yanada qizarib, ko'zlari katta-katta bo'lib ketgan. Qoshlarini ham qattiq chimirib olgan.

– Aytgan nafasingiz rostlandimi? – dedi u menga o'qrayib.

– Toshlar bilan suhbat qurildi, – dedi Alisher aka gapga aralashib. –

Nazarimda, tabiatga murojaat etdi, bu odam.

U menga samimiy qarab qo'ydi. Bu go'yo sirlarning sohibi uni hech qachon ochmaydi, degandek boqish edi.

Men indamadim.

Keyin pastga – bazaga olib boradigan ilonizi yo'ldan yurib ketdik. Oyoqlarimiz tez odimlayotgandi. Birozdan so'ng soyning chetrog'idagi pastroq qoyaga chiqqim kelib qoldi. Go'yoki, shunday qilsam, o'zimni sokin his qilishimni bilardim. Ko'p yillik ayriliqqa barham beriladigandek edi-da. Ikkilanib o'tirmay, shu tomonga qadam tashladim. Qoyadan bo'rtib chiqqan toshlarni ushlab, tepaga o'rmaladim. Amallab, cho'qqi uchiga yetib oldim. Keyin tik turgancha, ko'zlarimni mahkam yumib oldim. Tanamga kelib urilayotgan shom shabadasi rohat va xotirjamlik in'om etardi. Haligi nar kaklikning sayragan ovozi yana eshittildi.

– Hali ko'p o'sha joyda turasizmi? – dedi kapitan

Mamajonov. Uning ovozi uzoqlardan eshittilyotgandek edi.

Ko'zimni ochib, pastga qaradim. Orifjon aka bilan

Rajabov ikkisi men turgan joyga xo'mrayib qarab turardi.

– Bo'ling, tushing!

Endi chiqqan joyim juda silliq va baland bo'lib tuyula boshladi. Chaproqqa qarab yurdim.

Qoyaning yonboshida turgan toshga qadam qo'yishimni bilaman, u meni ko'tarolmay,

joyidan ko'chib ketdi. Jonim bo'g'zimga tiqildi.

Yuragimning urishi quloqlarim ostida snaryad portlagandek gumburlardi. O'zimni ortga tashlab, tirmashdim. Barmoqlarimda daf'atan shunaqangi kuch paydo bo'ldiki, shu turishda aniq buqani ham bemalol ko'tarib turishim mumkin edi. Orifjon akaning men tomonga yugurganini ko'rib, unga qarab kulib qo'ydim.

Quyosh kun davomida biz kirib borgan soyga hech ham nazar tashlamadi. U qoyalardan pastroqdan o'tib, yonboshga og'ib ketgandi.

Tunni bazada o'tkazdik. Tongda yana tog'lash uchun tosh ko'chgan qoyalar tomon yuridik.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

– Himmat qilish kerak, – dedim pichirlab.

U jangovar kiyimda.

Qo'llarini ustidagi nimcha ichiga tiqib olgandi. Endi uning yuziga yaxshilab razm soldim: avvalgi yilda ko'rganimdan ancha vazn tashlabdi. Ammo ko'zlari o'sha-o'sha: qat'iyat va g'ayratga to'la. Biz hamon soy o'rtasida turib qolgan tosh oldida edik.

Yuqorida vazifa bajarayotgan harbiy xizmatchilarning jangovar ovozi uzoq-yuluq eshittilib turardi.

– O'tmish va kelajak ularning so'lg'in yuzida tortilgan chuqur va uzun ajinlarda oqib yuradi, – dedi Rajabov. Uning ovozida tushkunlik paydo bo'lgan edi. Qorachiqlari ham torayib, yuzidagi tabassum so'ldi. Boyagina viqor tortgan gavda issiqda turgan toldek bukila boshladi.

– Orzular, – dedim past ovozda.

U silqigan ko'zlarini qisib menga qaradi.

– Orzular eshigining qayerdan kirib, qayeridan chiqamiz o'zi?! – dedi u. Keyin qaddi-qomatini rostlab oldi.

– Avval o'zimiz, so'ngra farzandlarimiz orzusi uchun eshiklarni yopishga qo'rqamiz.

– Balkim, – dedi Rajabov. – Besh qizim bor. Har birida bir jonimni asrayman.

Uning ovozi birdan mayinlashdi. Lablari tortilib, chehrasida kezib yurgan tuman tarqab ketdi. Ko'krigidagi qurolini yanada mahkamroq ushlab oldi.

– Bu yoqda turib, u yoqning eshiklarini ochibsiz-ku.

– Qo'limiz tuproq, vujudimiz loy, – dedi Alisher aka mening gaplarimga e'tibor bermay.

Aka, bilasiz, men tog'da katta bo'lganman. Jamiki hislarim qoyalarda yillar davomida shakllangan. Tosh o'ynab bolaligim o'tdi. Shag'allar ustida chang'i uchdim. Chaqirda quyosh taftida toblanib, uning nurlaridan oziqlandim – hayot oldim. Uyimiz oldidagi teshik

– Tog'larga qarang, – dedi u ko'kka tutashib ketgan qoyani o'ng qo'li bilan ko'rsatib. – Ular hammasiga guvoh bo'lgan.

– Yo'lning boshi ular bilan boshlangan.

– Oxirida ham ular qoladi.

Alisher akani taniganimga ko'p bo'lgani yo'q. Uni ilk marotaba terimiz qurimay, ishga kirishib ketgan shu baza – Mudofaa vazirligi Tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlari markazining “Oltinkon” tog'-o'quv bazasining ochilishida uchratgan edim. O'shanda ikkimiz uzoq gurunlashgandik. U faoliyatidan so'zlagandi. Ishtirok etgan musobaqalardagi xotiralari bilan bo'lishgandi. Shajarasini tanishtirgandi: otasi, aka va jiyanlari ham harbiy xizmatda – Vatanning yuragiga yaqin yashab kelayotganini faxr bilan aytgandi.

– Tog'lar suymaganga bag'rini ochmaydi, – dedi u. Hamon ko'zlari qoyalar tomonga tikilgandi. – Ular ham qalbdan o'tganini his qiladi. Maqsad qay tomonga qaratilganini yaxshi sezadi. Aldayman deb o'zini yemirganlarni ko'p ko'rdim.

– Toshlar tosh qalblarni yoqtirmaydi, deng.

– Ammo chin muhabbat ularni ham eritadi.

O'quv-uslubiy yig'in



BARCHASI BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIKDAN BOSHLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, respublikadagi har bir tuman (shahar)da bitta umumiy o'rta ta'lim maktabi negizida bolalarni kichik yoshidan Vatanga cheksiz sadoqat ruhida, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan "Jasorat maktabi" faoliyati yo'lga qo'yilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar institutida "Jasorat maktablari"da faoliyat yuritish uchun saralab olingan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlari ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilarning kasbiy mahorati, bilimi, amaliy ko'nikmalari, lavozim majburiyatlarini bajarishda komandirlik sifatleri hamda tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazilib, barcha e'tibor tizim sifatini oshirishga qaratildi. Jangovar, jismoniy, tibbiy, psixologik hamda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda olib borilgan mashg'ulotlar ham shular jumlasidan.

– Mudofaa vazirligi tizimida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari lavozimi joriy etilgan edi. Ushbu lavozimga Mudofaa vazirligi tomonidan tegishli vazirliklarning hududiy bo'linmalari bilan kelishilgan holda oliy ta'lim tashkilotlari Harbiy ta'lim fakultetlarining chaqiriqqacha

harbiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari, Qurolli Kuchlarning rezervi (zaxira) dagi oliy ma'lumotga ega bo'lgan oddiy askar, serjant, shuningdek ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar saralash asosida ishga qabul qilingan, – deydi Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti bo'lim boshlig'i podpolkovnik Alisher Turdiyev. – Joriy yilning iyul oyida respublikadagi ta'lim tashkilotlari va "Jasorat maktablari"ning mazkur fan rahbari lavozimlariga nomzodlarni saralash va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish tadbirlari o'tkazildi. Bugungi kunda butlash tadbirlari yakunlanib, lavozimga yangi kelgan rahbarlar bilan bosqichma-bosqich harbiy institutlar bazasida, shuningdek harbiy okruglar tasarrufidagi harbiy qismlar (poligonlar) da o'quv-uslubiy yig'inlar o'tkazildi. Quruqlikdagi qo'shinlar instituti bazasida bo'lib o'tgan keng qamrovli chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik

rahbarlari bilan ilk marotaba bo'lib o'tgan o'quv-uslubiy yig'inning ahamiyati juda katta bo'lib, sohaga oid bilim va malakalarini oshirish, yuqori ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamlı tadbirlar amalga oshirildi. Yoshlarni yot g'oyalari ta'siriga tushib qolishining oldini olish hamda kuchli psixologik immunitetni shakllantirish uslubiyatlari mutaxassis psixologlar tomonidan mashg'ulotlar orqali tushuntirildi.

Yig'in yakunida O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov Quruqlikdagi qo'shinlar institutiga tashrif buyurib, yig'in ishtirokchilari bilan uchrashdi. Unda dastlab chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlari ishtirokida harbiy okruglar tasarrufidagi harbiy qismlar (poligonlar) bazasida bosqichma-bosqich o'tkazilgan o'quv-uslubiy yig'inlar, erishilgan yutuqlar va kelgusidagi rejalar haqida batafsil axborot berildi.

Shuningdek, uchrashuv davomida mudofaa vaziri fan o'qituvchilari bilan yig'in yakuni bo'yicha muloqotga kirisharkan, maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbarlarining uslubiy qobiliyati va javobgarligini oshirish, o'quvchi-yoshlar bilan ishlashda ahamiyat berilishi zarur bo'lgan jihatlar chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimini rivojlantirish masalalariga alohida to'xtaldi. Shu bilan birga yig'in ishtirokchilarining soha rivojiga qaratilgan taklif va mulohazalarini eshitdi.

Mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, ularning barcha yo'nalishlarda bilim-ko'nikmalarini oshirish borasida qilinayotgan bu kabi islohotlar yaqin kelajakda o'z samarasini beradi.

Sherzod SHARIPOV,
"Vatanparvar"



Mashg'ulot

RUHIY BARQARORLIK — ARMIYANING KUCH-QUDRATI

Bugungi kunda mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlar, yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bunday sharaflı va mas'uliyatli ishga bel bog'lagan yurt o'g'lonlaridan esa zamonaviy qurol-aslahalar va harbiy texnikalardan mukammal darajada foydalana olishda yuksak ruhiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari ham talab etiladi.



Shu bois harbiy qismlarda harbiy psixologlarning malakasini oshirish uchun o'quv-uslubiy yig'inlar, bir qator vazirlik va tashkilotlarning tajribali mutaxassislari va professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv va seminarlar tashkil etib kelinmoqda.

Aynan shunday tadbirlardan biri Mudofaa vazirligiga qarashli Farg'ona shahrida joylashgan harbiy qism bazasida

o'tkazildi. Unda Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlaridagi harbiy qismlarda faoliyat olib borayotgan harbiy psixologlar besh kunlik o'quv-uslubiy yig'in doirasida malaka oshirdi.

Dastlab o'quv yig'ini rejasiga asosan, harbiy psixologlar bilan saf ko'rigi o'tkazilib, o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar atroflicha sarhisob qilindi. Unda har bir ishtirokchi harbiy psixologning bir kunlik ish faoliyatini ko'rgazmali tarzda namoyish etdi.

Yig'in davomida o'tkazilgan mashg'ulotlar Farg'ona harbiy gospitali, Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Farg'ona davlat universiteti, shahardagi xususiy neyropsixologiya markazi mutaxassislari va professor-o'qituvchilar tomonidan tashkil etildi.

Tibbiyot xizmati mutaxassislari tomonidan jangovar xizmat va ekstremal vaziyatlarda o'ziga va safdoshiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha

o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar ham barcha uchun foydali bo'ldi.

Mashg'ulotlar yakunida muddatli harbiy xizmatchilar bilan ruhiy zo'riqlashlarni yechish xonasida psixologik konsultatsiya ishlari, gulxan atrofida davra suhbatlari, mobil psixologik treninglar va madaniy hordiq chiqarish tadbirlari ham tashkil etildi.

Yig'in so'ngida o'tgan davr mobaynida yuqori natijalarga erishgan mutaxassislar rag'batlantirildi hamda kelgusidagi istiqbolli vazifalar belgilab olindi.

Bellashuv

YANGI O'ZBEKISTONNING VATANPARVAR AYOLLARI

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari o'rtasida milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizni keng targ'ib etish, harbiy xizmatchi ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ular o'rtasida turli ko'rik-tanlovlar va musobaqalarning tashkil etilishi esa sog'lom raqobatning yaratilishida, malakalarini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Respublikamizning olis hududi hisoblangan Navoiy viloyatining Uchquduq tumanida Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda harbiy xizmatchi ayollar, harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari hamda Qurolli Kuchlar xizmatchilari o'rtasida "Yangi O'zbekistonning

vatanparvar ayollari" shiori ostidagi ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi.

Uchquduq tumanida joylashgan Yoshlar markazida o'tkazilgan musobaqada jamoalar 5 ta – "Jamoalarni tanishtirish", "Vatan haqida ifodali she'r o'qish", "Milliy taom tayyorlash", "Savol-javob" hamda "Sahna ko'rinishi"

shartlari bo'yicha o'zaro bellashuvga kirishdi.

Tadbir davomida Uchquduq madaniyat saroyi xonandalari tomonidan kuylangan Vatanni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar tomoshabinlarga yanada ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

Hakamlar hay'atining yakdil qaroriga asosan, Mudofaa vazirligiga qarashli Navoiy viloyati Uchquduq tumanining harbiy xizmatchi ayollaridan iborat "Jasorat malikalari" jamoasi g'olib deb topildi.

Yakunda g'olib va sovrindor jamoalarga diplom hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Ijtimoiy himoya



Shu sababli harbiy xizmatchilar uchun belgilangan **ta'til tizimi** ularning huquqiy, ijtimoiy va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashda muhim vosita hisoblanadi.

HARBIY XIZMATCHILARNING TA'TIL OLISH HUQUQLARI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunga muvofiq, harbiy xizmatchilar davlat tomonidan kafolatlangan mehnat va ijtimoiy huquqlarga egadir. Ular orasida ta'til olish huquqi alohida o'rin tutadi. Bu huquq har yili beriladigan yillik dam olish, sog'lig'ini tiklash, oilaviy holatlarga bog'liq muammolarni hal qilish imkonini yaratadi.

TA'TIL TURLARI

Tinchlik davrida harbiy xizmatchilarga quyidagi ta'tillar beriladi:

- navbatdagi;
- kasalligi tufayli;
- kanikulyar;
- oliy harbiy ta'lim muassasalarini bitirish munosabati bilan;
- qo'shimcha;
- homiladorlik va tug'ish, shuningdek bola parvarishlash munosabati bilan;
- qisqa muddatli (*muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilari uchun*).

Harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha ham ta'tillar berilishi mumkin.

Xorijiy armiya tajribasi bilan taqqoslaganda ta'til turlari quyidagilardan iborat, masalan:

AQSh harbiy xizmatchilari quyidagi turdagi ta'tillarga ega: asosiy to'lanadigan ta'til, qo'shimcha ta'til, kasallik, ta'lim, tug'uruq ta'tillari va ota-ona ta'tillari. To'lovsiz ta'til ham mavjud.

Turkiya Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilar asosiy ta'til, kasallik, oilaviy, tug'uruq (*ayol harbiy xizmatchilar uchun*) va qo'shimcha ta'tillar kabi bir necha turdagi ta'tillarga ega.

Fransiya armiyasida harbiy xizmatchilar uchun yillik to'lanadigan ta'til, qo'shimcha, o'qish va kasallik ta'tillari kabi bir necha turdagilari mavjud.

TA'TILLARNI REJALASHTIRISH

Har yili **20-dekabr** kunigacha kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning navbatdagi ta'tilga chiqarish rejasiz tuziladi.

Ta'tillar rejasini tuzishda quyidagi talablarga amal qilinadi (*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrda qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy*

Harbiy xizmat – bu alohida e'tibor, matonat va fidoyilikni talab etuvchi soha. Harbiy xizmatchilar doimiy ravishda yuqori intizom, jismoniy tayyorgarlik va psixologik barqarorlik holatida bo'lishi zarur. Ularning xizmat faoliyati 24 soatlik ish rejimi, favqulodda holatlar, safarlar va boshqa ko'plab murakkabliklar bilan kechadi.

HARBIY XIZMATCHILARGA TA'TIL BERISH TARTIBI (ta'til turlari, rejalashtirish va rasmiylashtirish)

xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizamning (keyingi o'rinlarda – nizam) 259 va 260-bandlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno:

- harbiy qism (*muassasa*)larning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik rejasiga kiritilgan tadbirlarni inobatga olgan holda harbiy xizmatchiga ta'til muddatini belgilash;
- harbiy xizmatchilarga ta'til muddatlarini belgilashda **adolat** tamoyillariga rioya etish (*harbiy xizmatchi har yili har xil faslda ta'tilga chiqishi lozim*).

Ta'til rejasini kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga bevosita komandir (*boshliq*)lari tomonidan yetkaziladi.

Nizomning 261-bandiga asosan quyidagi hollarda:

- harbiy xizmatchi kasal bo'lganda;
- harbiy xizmatchi rejalashtirilmagan tadbirlar (*tabiiy, texnogen va shunga tenglashtirilgan holatlar*)ga jalb etilganda;
- nizomning **259 va 260-bandlarida** ko'rsatilgan harbiy xizmatchilarga;
- harbiy xizmatchi uzoq muddatga xorij xizmat safariga yuborilganda (*o'qish va xalqaro hamkorlik tadbirlarida ishtirok etish uchun*) o'tgan yil uchun navbatdagi ta'til berilmagan bo'lsa, ushbu ta'til kelgusi yilning **birinchi choragida taqdim etilishi shart**.

TA'TILLARNI RASMIYLASHTIRISH

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi navbatdagi ta'tillar rejasiga muvofiq yoki boshqa turdagi ta'tillar uchun **bo'ysunuv tartibida** tegishli mazmunda **yo'zma bildirgi** taqdim etadi. Mazkur bildirgida ta'tilning boshlanish va tugash sanasi, o'tkaziladigan joyi (*aniq manzil va telefon raqamlari*), **zarur hollarda harbiy tashish hujjatlari**, shuningdek ta'tilda bo'lgan vaqtda uning xizmat **majburiyatlarini kimning zimmasiga yuklash** taklif etilayotgani ko'rsatiladi. Ta'tilga chiqish uchun barcha bildirgilar **majburiy ravishda kadr organlari bilan kelishiladi**.

Navbatdagi ta'til ta'tillar rejasiga muvofiq, joriy yilda taqdim etilishi shart. Uzrli sababsiz ta'tilga chiqish yoki uni **ko'chirish uchun** (*ta'tilga chiqishdan kamida o'n besh kun oldin*) **bildirgi taqdim etmagan** harbiy xizmatchi rejaga asosan, **majburiy ravishda ta'tilga chiqariladi**.

Harbiy xizmatchiga harbiy tashish hujjatlarini rasmiylashtirib berish zarur bo'lsa, u o'z bildirgisida ta'til o'tkaziladigan joyga borish va ortga qaytib kelish yo'nalishlarini (*transportning bir turidan boshqa turiga o'tishni hisobga olgan holda*) va yo'l yurish uchun sarf etiladigan sutkalar sonini ko'rsatib o'tadi.

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchining bildirgisiga muvofiq, navbatdagi **ta'til qismlarga** bo'lgan holda **berilishi mumkin**. Bunda ta'tilning **asosiy qismi yigirma kundan kam bo'lmasligi lozim**.

Ta'tilni o'tkazish joyiga **borish va qaytish uchun** qo'shib beriladigan vaqt yiliga **bir marotaba taqdim etiladi**, bunda temiryo'l stansiyalarning oralig'i 300 km.dan 500 km.gacha – **1 kun**, 500 km.dan 800 km.gacha – **2 kun** va 800 km.dan ziyod bo'lgan masofa uchun – **3 kun** taqdim etiladi (*ta'til o'tkazish joyiga borishda (qaytishda) havo transportdan foydalanganda qo'shimcha vaqt qo'shib berilmaydi*).

Navbatdagi ta'tilga kalendariy xizmat yillari uchun qo'shib beriladigan kunlar sonini aniqlashda

harbiy xizmatchi ta'tillar rejasiga asosan, ta'tilga ketish kunigacha bo'lgan davr hisobga olinadi.

Harbiy xizmatchi ta'tilga chiqishidan oldin bevosita **komandir (boshliq)** yoki vakolatli mansabdor shaxs tomonidan unga **yo'riqnoma beriladi**. Ta'til davrida harbiy xizmatchi **amal qilishi lozim bo'lgan qoidalarga** muvofiq, tuziladigan **ta'til guvohnomasida ko'rsatiladi**.

Harbiy xizmatchiga ta'til berish to'g'risidagi buyruq ish yuritish qoidalariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Ta'til berish to'g'risidagi buyruqda ta'tilning davomiyligi, boshlanish va tugash sanasi, ta'til o'tkaziladigan manzil, harbiy xizmatchi va uning oila a'zolari nomiga harbiy tashish hujjatlari rasmiylashtirilgani haqidagi ma'lumotlar va ta'tilga chiqish uchun asos bo'lgan bildirgining qayd raqami aks ettiriladi. Barcha ma'lumotlar tegishli ish yuritish bo'linmalarida yuritiladigan vaqtincha ketgan va vaqtincha kelgan shaxsiy tarkibning hisobini yuritish kitobiga kiritiladi.

Ta'til guvohnomasi ikki nusxada tuziladi – uning **birinchi nusxasi** ta'til davrida **harbiy xizmatchining o'zida saqlanadi**, ta'til muddati tugagandan so'ng u ish yuritish bo'linmasiga topshiriladi, guvohnomaning **ikkinchi nusxasi ish yuritish bo'linmasida saqlanadi**.

Ta'til o'tkazish joyiga **borish va qaytishda faqat havo, temiryo'l yoki boshqa jamoat transporti orqali amalga oshirilishi shart**.

Harbiy xizmatchi, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilari **ta'tildan qaytgach**, ta'tildan qaytgani haqida bo'ysunuv tartibida yozma **bildirgi (ariza)** bilan murojaat qilib, xizmat majburiyatlarini bajarishga kirishganini **ma'lum qiladi**.

Harbiy qism komandiri (*muassasa boshlig'i*) **ta'tildan o'z vaqtida qaytmagan** harbiy xizmatchi, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarini **qidirish choralari**ni **ko'rishi lozim**. Belgilangan muddatdan **uzrli sabablarsiz kechikib kelganlarga** nisbatan harbiy qism komandiri (*muassasa boshlig'i*) tomonidan **xizmat tekshiruvi o'tkaziladi**. Xizmat tekshiruvi yakuniga **ko'ra**, ta'tildan kechikib kelgan shaxsga nisbatan **qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik** masalasi ko'rib chiqiladi.

Ta'til vaqtida xorijiy davlatlarga ruxsatsiz chiqish holatlari **aniqlanganda**, Mudofaa vazirligining maxsus talablarini hisobga olgan holda bo'ysunuvchilarga nisbatan komandir (*boshliqlar*) tomonidan harbiy xizmatchi bilan **vazirlik tashabbusiga ko'ra**, kontraktning muddatidan **oldin bekor qilish, ishchi va xizmatchilar bilan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra**, mehnat **shartnomalarini bekor qilishgacha** bo'lgan choralar ko'rinishi mumkin.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, harbiy xizmatchilarga **ta'til berish** tartibi – bu nafaqat **xizmatni yengillashtirish**, balki harbiy xizmatchining **huquqini ta'minlash** vositasi. **O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida** ushbu masala batafsil yoritilgan bo'lib, harbiy xizmatchilar **qanday ta'til olish** huquqiga ega ekani **aniq ko'rsatilgan**.

Ta'til turlarining xilma-xilligi, ularning **xizmat muddati, sog'lig'i, oilaviy holati kabi omillar** bilan uzviy bog'liqligi xizmatni ijtimoiy jihatdan **adolatli tashkil qilishga** xizmat qiladi. Rejalashtirish va rasmiylashtirish tartibining huquqiy asoslar bilan mustahkamlanishi esa harbiy intizomni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mayor Shamil SHAYBAKOV,
Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh
boshqarmasi bo'lim katta ofitseri

Nazm sadosi

UNI TUSHUNSAYDI ODAMLAR

Tushiga Yusuf kirgan suluv qizning o'ylariga o'xshash tuyg'u she'rdir! Qiz umrining oxirigacha o'sha tushlarining ro'yobini kutib yashaydi, izlab yashaydi. Hatto yo'lida ro'baro kelgan oshig'ining o'zidan ham tonib yashaydi.



Eng yaxshi she'rni qachon, qayerda yozishingni bilmaysan, elga manzur kelgan she'ring senga manzur kelmaydi. Odamlar esa sendan o'zlarini qidirishadi, ular ham topolmaydi, sen ham tushuntirilmaysan. O'sha kezlar beixtiyor bir so'z tilingda aylanadi: "Meni tushunsaydi odamlar".

Odami odamni tushunishi esa juda qiyin jarayon, hammaning haqiqati bor, hammaning dunyosi, uyi bo'lak, mozori boshqa. Turfa olomon ichidan seni tushunguvchi odamni topishing esa dengizdan igna qidirgandek gap.

Vatan ichra o'tayotgan safarlarimiz davomida o'zim uchun yangi bir shoirni kashf etdim. Do'stning kimligini, kimning kimligini safarda bilasan, deganlaridek, ko'nglim dengiziga yana bir o'zan ochdim. **Bu o'zanning nomi – Rustam Musurmon.**

Beg'ubor nigohlarida jonlangan hayratlarining o'zi yozib bo'lmas she'r, anglab bo'lmas tilsim. U dalada lola terib yurgan bolaga o'xshaydi. Bag'riga bir quchoq lola solib olgan-u, hammaga ilinib yuribdi. Bir qarashda na dardi, na armoni bor, deb o'ylaydi kishi. Biroq har qadamidan she'r to'kilib ketayotganini birov anglab, birov anglamaydi. Bolaligi o'zida qolgan oltimish uch yoshli bolakay yelkasidagi, yuragidagi adabiyot yuki "Dunyo mening qo'limda jon saqlayapti" deb yurgan jarchilarnikidan og'irroq, dardliroqdir. **"Meni tushunsaydi odamlar"**, deydi ko'zlarini olis ufqqa tikib, "titilib ketsaydim, katilib ketsaydim" deya zorlanadi. Qani endi, uni bu dunyo tushunolsa, odamlar tushunolsa... She'rlarining ohangiga mahliyo bo'layotgan kishilar, dardini ham uningdek his qilsa, dunyoni

qalb ko'zi bilan ko'ra olsaydi, ko'zyoshlarini to'xtata olmas edi.

RUSTAM MUSURMON ijodi haqida mening bu arzimagan ta'riflarim dengizdan tomchi, xolos. Ustozning bizga oshkor bo'lmagan yana qancha olami bor, bilmadim. Bilganim – o'zining so'zi va yo'lini yarata olgan ijodkor, asl shoir. Iste'dodli rus shoiri Sergey Yesenin aytganidek,

*"Kuyla faqat o'z sozing bilan,
Qurbaqadek bo'lsa ham, hatto".*

Quyida men sizlarga ilinayotgan she'riy taqrizlarim faqatgina mening hayratlarim. Bu she'rlardan hamma o'z baxt-u armonini, xulosalarini topadi.

*Rizq-u ro'z beradi buloq,
tog'-u tosh,
Odamning mol boqib topgan
noni bol.
Osmonda portlaydi
yulduzlar bosh-bosh,
Ko'kda poda boqib yuribdi hilol.
Oshi halol,
podachi,
Oshi halol.*

Shoirning "Oshi halol" she'riga duch kelar ekanman, ko'z oldimda olis bolaligim, qishloq adirlarida mol haydab yurgan cho'pon yigit gavdalanadi. Poda qaytgandan so'ng eshagiga xurjunini ortgancha qishloq odamlaridan rizq-ro'z terib yurgan cho'pon sizni ham bir fursat xayolingizdan o'tishi tayin. Aniq eslayman, qishlog'imiz podachisi haftaning ikki kunida "Oshalol keldi", deb jar solib yurardi. Otam ikkita nonni qo'ltig'imga qistirib, "Bor, podachining xurjuniga solib yubor", derdi. Qishloq bolalari birgalashib, cho'ponning ortidan ergashardik, cho'ponga qo'shilib, "Oshalol keldi" deb hayqirib yurardik. Bu she'rni o'qirkanman, xotirotdengizimning tubida zanglab yotgan xotiralarim jonlandi.

"Ko'kda poda boqib yuribdi hilol".

Shoirilar ramzlarni, o'xshatishlarni sevadi. Yaxshi misralarga uchrab qolgan

o'qirman esa soatlab o'sha tashbehning totidan yuragini bollab yuradi. Yuqorida yozilgan misra ham xuddi shunaqa, shoirning xayoliga qaydan keldi deb o'ylaysiz, "Nega men yozmadim?" deb o'ylaysiz. Hilolning ko'kda yulduzlarga cho'ponlik qilishi qanday go'zal-a?..

RUSTAM MUSURMON ijodida bunday tashbehnlarni juda ko'p uchrasiz, yangiliklarni topasiz. Shoirning yigitlik yillarida yozilgan "Yurak" she'rini olaylik.

*Yurak mening duldulim,
Ko'kragimda qozig'i.
Beda emas, yem emas,
Mehrdandir ozig'i.*

Balandparvoz gaplar bilan og'iz to'ldirib she'r yozish har shoirning qo'lidan kelar, ammo bunday samimiylilik bilan muhabbatni ifoda etish faqat Rustam Musurmonning qo'lidan keladi. Sevgi mening tulporim, deydi shoir, faqat "qozig'i ko'kragim"ga qadalgan. Oshig'ining mehridan bo'lak hech narsa uning chanqog'ini bosolmaydi. Uni muhabbat bilan, sevgi bilan oziqlantirib turish kerak, deydi shoir.

*O'zim bersam yemaydi,
Yemishlarning gulidan.
Oziqlanib o'rgangan,
Suluvlarning qo'lidan.*

Shoirning har bir she'ri meni qishloq tomon boshlayveradi. Bir otimiz bo'lardi, faqat akamning qo'lidan yem yerdi, boshqa birov bersa, orqaga tisarilib olardi. Shoir bu kechinmalarni yashagan, ko'rgan, eng dahshatlisi she'rga solgan.

She'r shunday yakun topadi:

*Oxiri bir parini,
Olib qochar yugurib.
Meni sudrab ketadi,
Qozig'ini sug'urib.*

YURAK BARIBIR AYTGANINI QILADI, meniham o'zi bilan qay tomonlargadir boshlab ketadi, deydi shoir. Lekin menga o'xshab jo'n aytmaydi, o'z tilidan aytmaydi, tulporlar tilidan aytadi. Shoir she'rlarining o'zgachaligi ham shunda, ko'p qatori siyqa emas, yangi obrazlar topadi. Shoirning o'zi aytganidek:

*Yo'lovchi suv izlab,
buloqni topar,
Zulmatda nur izlab,
chiroqni topar.
Kamondan chiqqan o'q
topar nishonni,
Yurakdan chiqqan so'z
yurakni topar.*

Aynan shunday yurakdan chiqqan so'z, albatta, yuraklarni topadi. Oltin yer ostida million yil yotsa ham zanglamaganidek, asl she'r, asl so'z, albatta, o'z o'qirmanlarini topadi.

So'zimni esa shoirim Rustam Musurmonning "Bozbarak" she'ri bilan yakunlayman.

BOZBARAK

*Inson Yer sharini ko'tarolmasmish,
Tayanch nuqtasini topmasmish...
Biroq mening bir qo'limda
zamin chirparak,
Barmog'im uchida aylanar falak –
Bozbarak, bozbarak, bozbarak...*

*Tugma qadab bo'lmas
emish shamolga,
Qo'lga tushmas emish hech qachon...
Biroq
Men esa shamolning ikki betiga
Tortib yuborganman ikki shapaloq –
Bozbarak, bozbarak, bozbarak...*

*Hech kim ucholmasmish
oyog'i bilan,
Parvoz qilolmasmish osmonga...
Biroq
Mening oyog'imda tolmas
qanot bor,
Mening oyog'imga joylangan yurak
Bozbarak, bozbarak, bozbarak...*

*Umr daryosidan kechdi bolalik,
Shul daryo girdida
qolgan charxpalak,
Qamishday bo'ynimga
qo'ngan ninachi,
Gulday hayotimdan
uchgan kapalak
Bozbarak, bozbarak, bozbarak...*

**Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"**



Zaxiradagi jangchi

“ARMIYADA O‘ZIMNI TOPGANMAN”

Milliy armiyamiz jangovar saflarida xizmat olib borgan shunday faxriy harbiylar borki, ularning boshdan o‘tkazganlarini eshitar ekansiz, har bir so‘zida mardlik, jasorat, vatanparvarlik va fidoyilik hamon jo‘sh urib turganini ko‘rasiz. Ular yillar davomida yurt tinchligi, xalq osoyishtaligi yo‘lida xizmat qilib, mashaqqatli vazifalarni sharaf bilan ado etgan. Ular nafaqat o‘zlarining harbiy burchini sidqidildan bajargan, balki yosh avlod uchun ham ibrat maktabiga aylangan shaxslardir.



Suhbatdoshimiz iste‘fodagi general-mayor Qosimali Ahmedov ham xizmat davomida qiyinchiliklarni, mashaqqatlarni sabot bilan yengib, Vatan tinchligi uchun yelkasiga elning ishonchini olganlardan. U 1962-yilning 5-noyabrida Samarqand viloyatida oddiy ishchi oilasida tug‘ilgan. Qosimali Ahmedov orzusi yo‘lida ko‘p qoqilgan, muammoli vaziyatlarni boshdan kechirgan. Biroq bir soniya bo‘lsa-da, uning xayoliga niyatidan qaytish fikri kelmagan. Aksincha, qancha sinov kelsa, barini yengib, maqsadi tomon ildamlayvergan.

– **Qosimali aka, harbiylikka qiziqishingiz qachon va qanday paydo bo‘lgan?**

– Maktabda o‘qib yurgan paytlarim uyimizda katta,

qulog‘i ombirda buraladigan oq-qora tasvirli televizorimiz bo‘lardi. Anig‘ini eslolmayman, haftaning qaysidir bir kunida harbiylarga oid ko‘rsatuv berilardi. O‘sha ko‘rsatuv boshlanishi bilan hamma ishlarimni yig‘ishtirib, oynayi jahon qarshisiga o‘tirib olar edim. Efirga uzatilayotgan kadrlardagi harbiylarni, ularning saf bo‘lib tartib bilan yurishini ko‘rib, havasla qarab o‘tirardim. Menimcha, o‘sha paytlardan ushbu sohaga qiziqishim boshlangan. Darslarga ham butun maktab bo‘yicha bitta o‘zim amakim armiyadan olib kelgan beretni kiyib borardim.

Bundan tashqari, mahallamizga yaqin joyda harbiy bilim yurtlarida o‘qiydigan bolalar bo‘lardi. Ularning egnidagi liboslarini ko‘rib, havas qilardim. Qolaversa, ular har ta’tilda uylariga kelganda yoniga borib, soatlab gaplashib o‘tirardim. O‘zim qiziqqan barcha narsani so‘rab olardim. Harbiy ta‘lim darslarida ham juda faol bo‘lganman. Qiziqishim yuqori bo‘lgani uchun sinfdoshlarimdan bir qadam oldinda yurardim. Hatto amaliy mashg‘ulotlarda qurol-yarog‘ni qanday sohib yig‘ishni tengdoshlarimdan ko‘ra yaxshi bilar va bajarar edim. Kelajakda harbiy bo‘lishimni o‘shandayoq sezganman. Chunki boshqa birorta kasbda o‘zimni tasavvur qilolmasdim.

– **Orzungiz yo‘lida qanday muammoli vaziyatlar bo‘lgan?**

– O‘sha vaqtlarda “Красная

звезда” nomli gazeta bo‘lardi. Mana shu gazetada barcha harbiy bilim yurtlari haqida ma‘lumotlar va o‘qishga topshirish bo‘yicha tavsiyalar berib borilardi. Boshqa bilim dargohlariga qaraganda, Toshkent oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti o‘zgacha qiziqish uyg‘otgani bois shu yerga o‘qishga hujjat topshirganman. Biroq urinishim besamar ketgan. Qandaydir kamchilik sabab hujjatlarim ortga qaytgan. Keyin bilsak, 18 yoshga to‘lmaganim uchun shunday bo‘lgan ekan. Shunda ham taslim bo‘lmasdan, mudofaa vaziriga ushbu masala bo‘yicha murojaat qilganmiz. Ammo bu urinish ham foydasiz bo‘lgan.

Oradan bir yil vaqt o‘tgach, haydovchilik bo‘yicha o‘qidim va

Ana shunday tekshiruvlarda bir nechta safdoshlarim uxlab qolgani aniqlangan. Xizmat olib borayotgan joyda ko‘z yumish, hatto qurolni yerga qo‘yish mumkin emas. Ularning jazolanganini ko‘rib, menda ham shunday holat bo‘lmasligi uchun o‘zim bilan kurashardim.

Bir kuni naryadda turibman. “Dejurniy”lar tekshirgani kelishdi. Negadir mening galimda ular odatdagidan ko‘proq kuzatib ketishdi. “Postavoy”ni ochib ko‘rsam, meni 2 soat ichida 12 ta nazoratchi tekshirgan. Keyinchalik bilsam, ular mening postda uxlamaganimni ko‘rib, yashirincha uxlayotgan bo‘lishi mumkin, degan shubha bilan kuzatgan ekan. Buning uchun komandirimiz boshqalarga o‘rnak



Sibirda raketalarni tashiydigan zanjirli tyagach haydovchi lavozimida muddatli harbiy xizmatni o‘tadim. U yerning iqlim sharoiti og‘ir, sovuq bo‘lgani uchun boshida moslasholmasdan qiynalganman. Shu darajada qahraton sovuqdan eshiklarning yarmi qor bilan qoplanardi. Tong otgach, safdoshlarimiz bilan yo‘lak va eshiklar oldini tozalardik. Keyinchalik u yerning iqlimiga moslashib ketganman.

Qismdagi postlarda naryadga tushamiz. Tun sovuq va qorong‘i. Tonggacha navbatma-navbat almashib postda turamiz. Navbatchilar o‘zlariga belgilangan vaqtlarda tekshiruvga kelishadi.

sifatida ko‘rsatib, mukofotlagandi.

Kun sovuq, qahraton qish hukm surmoqda. Ertalabki nonushtadan so‘ng hamma o‘ziga biriktirilgan ish bilan shug‘ullanmoqda. Shunda birdan “Trevoga” (yig‘in) signali chalindi. Kazarmadagilarning barchasi jangovar holatda tezkorlik bilan belgilangan nuqtalarga yo‘l oldi. Men esa tyagachimga o‘tirdim-da, vazifamga kirishdim. Guruh komandirimiz menga raketani olib kelishni buyurdi. Buyruqni olgach mashinam bilan katta tezlikda qurol-yarog‘ omboridan uni olib keldim. O‘quv mashg‘uloti tugagandan so‘ng qism komandiri jangovar topshiriqlarni qaysi guruh yaxshi



yoki yomon bajarganini o'qib eshittirdi. Bizning jamoa esa birinchilardan bo'lib, topshiriqni xatosiz va tez bajargan jamoa deb topildi. Ammo omborga texnika bilan katta tezlikda borganimni komandir o'rinbosari ko'rgan ekan. Bu harakatim bilan qurol-aslaha omborini xavf ostiga qo'yganim uchun 7 sutka qamoq jazosi berildi. Biroq jangovar vazifani aniqlik va tezkorlik bilan bajarganim uchun ushbu jazo shu joyning o'zida bekor qilingan.

– Yuqoridagidek vaziyatlarda qanday yechim topgansiz?

– Xizmat qilayotgan joyimdan meni boshqa divizionga o'tkazishdi. Erta tongdan hamma saf tortgan. Bexosdan guruh komandirlarining gaplarini eshitib qoldim. Ular qismga yangi keltirilgan 40 tonnalik raketalarni boshqarishga mo'ljallangan boshqaruv punktini qanday qilib balandlikka olib chiqishni muhokama qilib, yechim topa olmayotgandi. Shunda men o'z taklifimni bildirdim va bu ularga ma'qul bo'ldi. 12 tonnali tyagachim bilan ushbu kompleksni sekin tepaga tortib chiqa boshladim. Yonimdagi ofitser bilan tepalikka olib chiqib, "maskirovka" (niqoblash) qildik. Vazifa bajarilgach, tepalikdan pastga harakatlandik. Ammo biz harakatlanib kelgan yo'lning bir qismini suv yuvib ketgan ekan. Bu yo'ldan o'tib bo'lmasligini bilib turib, mas'ul bo'lib kelgan ofitser to'g'riga harakatlanishimni buyurdi. Vaziyatni qancha tushuntirmayin, u tushunishni istamadi. Na iloj, mashinamni o't oldirib, oldinga harakatlandim. Yo'lning yarmiga yetmasimizdan botib qoldik. Nima qilishni bilmay qolgan "starshiy" kabinaga suv to'layotganini ko'rdi-da, mashina derazasidan chiqib, qochib ketdi. Qancha urinmayin, bu holatdan chiqib ketolmadim. Piyoda pastga tushdim-da, holat bo'yicha bildirgi berish uchun komandir divizion oldiga bordim. Askar bo'lganim uchun qabul qilishmadi. Shu yerdan o'zimizning divizion bilan bog'lanib, mashina botib qolganini, chiqarmasak, muzlab, texnikaga

jiddiy ziyon yetishini tushuntirdim. Oradan biroz vaqt o'tgach, bir nechta mutaxassislardan iborat guruh yetib keldi. Ular bilan voqea joyiga borib, tyagachni botqoqlikdan chiqarishga muvaffaq bo'lganmiz. Biri tashlab qochdi, boshqalari kelib yordam berdi. O'shanda men har xil ofitser bo'lishini tushunib yetganman.

Muddatli harbiy xizmatdan so'ng Toshkent oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga imtihon topshirib, o'qishga qabul qilinganman. U yerda rus tilini yaxshi bilmaganim uchun biroz qiynaldim. Ayniqsa, matematika, fizika, kimyo fanlarida bir qancha til bilan bog'liq muammolar uchragan. Sababi darsliklar maktabdagidan ko'ra murakkab edi. Ba'zi so'zlariga uncha tushunmasdim. Shu sababli tinmay o'z ustimda ishlardim. Hatto ma'naviyat va ma'rifat xonalarida tun yarmigacha bilmagan narsalarimni o'rganardim. Ikki yillik tayyorlov va uyqusiz tunlardan so'ng tengdoshlarimdan o'zib ketganman.

Bilim yurtini tamomlagach, bir guruh ofitserlar Afg'onistonga yuborilganmiz. U yerning sharoitlari o'ta og'ir edi. Doimiy jangovar holatda xizmat olib borganmiz. Ikki yil u yerda bo'lgan bo'lsam, shu vaqt mobaynida jangarilarning hujumi oqibatida guruhimdan ikki nafar harbiy xizmatchi halok bo'lgan. Biri tankdan boshini chiqarib turgan vaqtda snayperning nishoniga aylangan. Yana biri bo'lsa, o'ziga belgilangan joyda xizmat olib bormagani uchun raketaning bo'lagi kelib, boshiga tushgan va shu zahoti jon taslim qilgan. Shundan so'ng shaxsiy tarkib bilan jiddiy ish olib borganmiz. Kim qayerda postda tursa, o'sha yerdan qimirlamaslik va tanklardan bosh chiqarmaslik bo'yicha tushuntirishlar olib borganmiz.

Yuqoridagidek holatlarning oldini olish bo'yicha reja ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq qilganman. Kuzatuv postida turgan askarlarga tankdan chiqmaslikni buyurganman. Mabodo chiqish



kerak bo'lsa, mashinaning tagidan chiqadigan joyi bor, o'sha yerdan har bir postga ulangan transheyalar qazdirganman. Zarurat tug'ilganda ular ana shu xandaqdan harakatlanishardi. Bu usul foyda beravergach, har bir nuqtaga oshxona, kuzatuv markazi, dam olish joylariga birlashtirib chiqqanman. Shundan so'ng nafaqat mening guruhimdan, balki boshqa bo'linmalarda ham yo'qotishlar deyarli uchramadi. Oradan biroz vaqt o'tgach esa ushbu amaliyot boshqa joylarda ham amalga oshirilib, o'z samarasini bera boshlagan.

– Tajribangizdan kelib chiqqan holda yosh harbiy xizmatchilarga tavsiyalaringsizni bersangiz.

– Biz xizmat qilgan vaqtlari armiyamiz hali to'liq professional darajada emasdi. Bugun esa zamonaviy qurol-aslahalar bilan jihozlangan, moddiy va ma'naviy jihatdan rivojlangan qudratli armiyaga aylandi. Harbiy xizmatchilar uchun turli imtiyoz va imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga ayrim joylarda xizmatni yarim yo'lda tashlab ketish holatlari ham uchramoqda. Buning sababi esa kasb tanlash bilan bog'liq muammolarning borligidir.

Harbiy bo'lish shunchaki kasb emas, balki o'z hayotini Vatanga,

xalqiga bag'ishlash demakdir. Bu yo'lni tanlagan inson o'z tinchligi va manfaatlarini emas, balki Vatanning xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yadi. U qishning qahratoni-yu, yozning jazirasida ham xizmatni sharaf deb biladi. Shuning uchun armiyaga endi kirib kelayotgan yoshlar ruhan, ham jismonan har qanday qiyinchilikka tayyor bo'lishi zarur. Ozgina to'siqqa uchrasa, yo'ldan qaytish haqiqiy harbiyga xos fazilat emas. Afsuski, ayrim yoshlarimiz bilan shunday vaziyatlar uchrab turibdi. Buning asosiy sababi kasb tanlashda yuzaki fikrlash va kelajak uchun pishiq, puxta reja tuzmaslik deb o'ylayman. Inson bir yo'lni tanlar ekan, oxirigacha sabr va matonat bilan uni bosib o'tishi zarur.

Harbiy xizmatchilarga tavsiyam shuki, har kim bilim olishdan hech qachon to'xtamasligi kerak. Zamon kundan kunga rivojlanmoqda, shu bois har bir harbiy xizmatchi o'z malakasini uzluksiz oshirib borishi shart. Ota-bobolarimiz, bejiz "Beshikdan to qabrgacha ilm izla", demagan. Zero ilm bilan qurollangan har bir inson kelajakda Vatan uchun mustahkam tayanchga aylanadi.

**“Vatanparvar” muxbiri
leytenant Mansurbek
JABBOROV suhbatlashdi.**



Jahon chempionati

DUNYOVIIY E'TIROF

Samarqand shahridagi "Silk Road Samarkand" turizm markazi mamlakatimizda o'tkazilayotgan yirik xalqaro sammitlar, davlatlar rahbarlarining muzokara maydoni, jahon miqyosidagi anjumanlardan tortib, nufuzli sport musobaqalarining ham doimiy mezboniga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bu yerda sportning triatlon, baydarka va kanoeda eshkak eshish turlari bo'yicha jahon kubogi hamda chempionati kabi bahslarning o'tkazilishi O'zbekistonning dunyo arenasidagi mavqeyini yanada oshirayotgani quvonarli.



Shuning uchun harbiylar o'rtasidagi 25-jahon chempionatiga mezbonlik qilish huquqi ilk marta mamlakatimizga ishonib topshirildi. Musobaqa tashkilotchilari bunday nufuzli musobaqaning yuqori darajada o'tkazilishiga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rib, barcha obyektlar sportchilar va xorij delegatsiyalari uchun shay holga keltirildi. Samarqand shahriga birin-ketin Qatar, Belgiya, Kanada, Ispaniya, Fransiya, Sloveniya, Shveysariya, Eron, Portugaliya, Germaniya, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi kabi o'ndan ortiq davlatdan yuzdan ortiq kuchli triatlon ustasi, xorijiy delegatsiya yetib keldi. Mehmonlar aeroportda

o'zbekona rasm-rusumlar bilan kutib olindi va

"Silk Road Samarkand"

turizm markazidagi muhtasham mehmonxonalarga joylashtirildi.

Musobaqaning tantanali ochilish va yopilish marosimlari turistik markaz majmuasida joylashgan **"Boqiy shahar"** hududida rang-barang shoular ostida tashkil etildi. Ochilish marosimida O'zbekiston triatlon federatsiyasi raisi Vladimir Mahmudov, mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov, CISM (Xalqaro harbiylar sport uyushmasi) bosh kotibi Roberto Rekkyo so'zga chiqib, mamlakatimizning sport miqyosida erishayotgan, kelgusida erishilishi kutilayotgan

yutuqlarini e'tirof etib o'tdi. Tantana o'tkazilayotgan maydonga O'zbekiston va CISM bayrog'i olib chiqildi. Davlatimiz hamda Xalqaro sport uyushmasi madhiyalari yangrab, jahon chempionatiga rasman start berildi.

Jahon chempionati ishtirokchilari uchta yo'nalish – elite (*professional*) va senior (*40 yoshdan oshganlar*) guruhlar va aralash juftlik estafetasi bo'yicha o'zaro bellashdi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi yakkalik bahslarida har bir davlat sharafiga uch nafar sportchiga himoya etish imkoniyati berildi. Shuning uchun jahon triatlone yetakchilari hisoblangan fransiyaliklar dastlabki urinishdayoq shohsupaning barcha pog'onasini egallashga urinib ko'rdi va buni qisman bajarishga muvaffaq bo'ldi. Jamoaning uch nafar sportchisi suzish va velopoyga bellashuvlarida yetakchilar safida bordi. Ammo yugurish bosqichida yetakchilar uchligi safiga mamlakatimiz sharafiga qilgan Jeremi Kindos qo'shildi. Ko'plab xalqaro musobaqalar sovrindori sanalgan Jeremi ko'rsatgan natija jamoamiz hisobiga dastlabki medalni taqdim qildi.

Elite guruhi:

1. Dorian Konninks – 49:50 (*Fransiya*).
2. Natan Lessman – 50:22 (*Fransiya*).
3. Jeremi Kindos – 50:27 (*O'zbekiston*).

Senior guruhi:

1. Kiril Goldovski – 56:27 (*Rossiya*).
2. Bertran Bulsh – 56:42 (*Fransiya*).
3. Marsio Neves – 56:56 (*Portugaliya*).

Ayollar o'rtasidagi yakkalik bahslarida ham sovrindorlik uchun bahslar yanada shiddatli kechdi. Qiziqarli o'tgan bellashuvlar natijasiga ko'ra, fransiyalik Matilda Gotye chempionlik unvonini qo'lga kiritdi. U marra chizig'ini 56 daqiqa-yu 47 soniyada bosib o'tishga muvaffaq bo'ldi.

G'olibdan 24 soniya ortda qolgan Djasha Vrtchich (*Sloveniya*) 2-o'rin sohibasiga aylandi. Sovrindorlar uchligini esa yana bir fransiyalik sportchi Siliya Marle yakunlab berdi. Uning uchta yo'nalish bo'yicha ko'rsatgan natijasi 58 daqiqa-yu 6 soniyani tashkil etdi.





Mazkur yo'nalishda hamyurtlarimizdan eng yaxshi natija Alina Hakimova tomonidan qayd etildi va u marra chizig'ini beshinchi bo'lib kesib o'tdi.

Senior yo'nalishidagi yakuniy natijalar quyidagicha ko'rinish oldi:

1. Anastasiya Abrosimova – 1.04.24 (Rossiya).
2. Sara Graves – 1.06.14 (Kanada).
3. Loreto Pastor Sopelana – 1.07.23 (Ispaniya).

Har bir jamoa sharafigini ikkitadan erkak va ikkitadan ayol atlet himoya qilgan aralash juftliklar estafetasida kutilmagan natijalardan biri qayd qilindi. Jamoalarning to'rtinchi ishtirokchilari startga chiqqunga qadar Rossiya Federatsiyasi harbiy triatlonchilari yaqqol peshqadamlikni qo'lga kiritib turgandi. Ammo fransuz va shveysariyalik sportchilar peshqadamni velopoyga bosqichida quvib yetishdi. Shundan so'ng doimgidek oltin medal yana fransuzlarga nasib etish ehtimoli ortdi. Ammo Shveysariya sharafigini so'nggi bosqichda himoya qilgan Benjamin Faye 1,6 km.lik masofani bosib o'tishda nomdor raqibini naqd 45 soniyaga ortda qoldirdi.

Aralash juftlik estafetasi:

1. Shveysariya – (1:19:08).
2. Fransiya – (1:19:53).
3. Rossiya Federatsiyasi – (1:20:02).
4. O'zbekiston – (1:23:52).

Musobaqaning g'olib va sovrindorlari tantanali yopilish marosimida munosib tarzda taqdirlandi. Xalqaro harbiylar sport uyushmasi bosh kotibi Roberto Rekky va mudofaa vaziri o'rinbosari polkovnik Alisher Norboyev chempionatning o'tkazilishida o'z hissasini qo'shgan barchaga minnatdorlik izhor etdi. Jumladan, muxlislarga qiziqarli onlarni taqdim qilgan triatlonchilarga mukofotlar topshirildi. G'olib va sovrindorlardan tashqari, o'ndan ortiq nominatsiya bo'yicha kuchlilar aniqlandi. Barcha yo'nalishlarda ko'rsatilgan natijalar sarhisobiga ko'ra, umumjamoa

hisobidagi sovrindorlar uchligiga aniqlik kiritildi. Mazkur uchlik safidan Fransiya, Rossiya va O'zbekiston terma jamoalari joy oldi.

Yaqindagina, to'g'rirog'i 24–25-may kunlari **“Silk Road Samarkand”** turizm markazida triatlon va paratriatlon bo'yicha jahon kubogi bosqichi muvaffaqiyatli o'tkazilgandi. Oradan ko'p o'tmay, hamyurtlarimiz harbiylar o'rtasidagi 25 jahon chempionatining qiziqarli va murosasiz bahslariga guvoh bo'ldi.

Musobaqa davomida xorijlik mehmonlar uchun Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylariga ekskursiya uyushtirildi. Buning natijasida jahon chempionati takrorlanmas taassurotlar ostida o'z yakuniga yetdi. Bu musobaqa jarayonida qatnashgan sportchilardan tortib, delegatsiya rahbarlari-yu, xorijlik jurnalistlar tomonidan qayta-qayta e'tirof etildi.

Roberto Rekky (Xalqaro harbiylar sport uyushmasi bosh kotibi, harbiy dengiz floti kapitani):

– Samarqandning jahon chempionatiga mezbon bo'lishi qaysi jihatlariga ko'ra aniqlandi deysizmi? Albatta, juda ko'p jihatlari bilan. Shahar dunyoning turizm markazlaridan biri, desam, adashmayman. Ko'plab xorijliklar bu yurtda bo'lishni orzu qiladi. Shu jumladan, sportchilar ham. Bundan tashqari, Samarqanddagi suv havzasi nafaqat triatlon, balki sportning boshqa ko'plab turlari bo'yicha ham xalqaro musobaqalarni tashkillashtirish imkoniyatiga ega. Jonajon shahringizda shunday majmua bor ekan, haqli ravishda ilk marta harbiylar o'rtasidagi jahon chempionatiga mezbonlik qilyapti. O'ylaymanki, bu boradagi yutuqlar vaqti kelib, Olimpiya, Osiyo o'yinlari darajasiga qadar quloqch yoyadi.

Georgiy KLIMENKO (rossiyalik musobaqa ishtirokchisi):

– Bilasizmi, bu yerga kelishimizdan avval jahon chempionati qaysidir poligonda bo'lib o'tadi va harbiylar yotoqxonasida

yashaymiz degan tasavvurda edik. Endi esa butun jamoamiz hayratda. Negaki musobaqa tashkilotchilari biz va boshqa jamoalarni hashamatli mehmonxonaga joylashtirishdi. Bunaqa sharoit, hatto Olimpiya shaharchalarida ham bo'lmasa kerak. Jamoalar musobaqa oldidan mashg'ulotlarda qatnashdik. Suvning tiniqligi, velopoyga va yugurish yo'lining ravonligini aytmayisizmi. Turistik markazdan tashqariga chiqmasdan ushbu qadimiy shahar haqida yetarlicha taassurotlarga ega bo'ldik. Bir so'z bilan aytganda, takrorlanmas go'zallik. Bellashuvlar davomida Samarqandga qisqa muddatli bo'lsa-da, sayohat qilish imkoniyatimiz ham bor ekan.

Pablo GERRERO (ispaniyalik jurnalist):

– Musobaqani yoritishga CISM tashkiloti taklifi bilan kelganman. Bu borada menga yuksak ishonch bildirgani uchun janob Roberto Rekkyga cheksiz minnatdorlik izhor etsam, arziydi. Chunki Samarqandga safar taklifi tushishi bilanoq xursandchilikdan shu kunni intizorlik bilan kutdim. Chunki bu qadimiy shahar haqida internetdan ko'p o'qigandim. O'qiganlarimni YouTube kanalidagi lavhalar bilan boyitdim. Ma'lumotlarda Samarqand – Yer yuzining

sayqali sifatida ko'p marotaba e'tirof etilgandi. Bunga safarim davomida yana bir marta amin bo'ldim. Jahon chempionati tafsilotlariga to'xtaladigan bo'lsam, juda ham ajoyib sport musobaqasi tashkil etildi. Bellashuvlarni o'ndan ortiq ommaviy axborot vositalarining yuzga yaqin xodimi yoritib borgani alohida maqtovga loyiq.

Sara GRAVES (kanadalik musobaqa ishtirokchisi):

– Shu paytga qadar 60 dan ortiq xalqaro turnirda qatnashganman. Endi ular qatoriga Samarqanddagi jahon chempionati ham qo'shildi. Uzoq yillik sportchilik faoliyatimda hali bunaqasi bo'lmagan. Bir umrga esdan chiqmaydigan xotiralar sifatida eslayman endi. Samarqandda aynan nimanidir yoqtirib qoldim, deya ayta olmayman. Barcha-barchasi ajoyib. O'zbek milliy taomlari, shaharning go'zalligi, musobaqalarning do'stona ruhda o'tishi, turizm markazidagi shart-sharoitlar. Sanayversam, ajoyib narsalarning sanog'i yo'qday. Bir kun kelib, sportdan ketadigan bo'lsam, har yili Samarqandga sayyoh sifatida kelishga harakat qilaman.

Asror RO'ZIBOYEV, “Vatanparvar”



Inson qadri uchun

CHEGARACHILARGA BAYRAMONA TUNHA

“ Davlatimiz sarhadlarini himoya qilish va xalqimiz tinchligini ta'minlash yo'lida xizmat qilayotgan chegarachilar o'z zimmasiga yuklatilgan jangovar xizmat vazifalarini bajarar ekan, biror soniya ham hushyorlikni unutmaydi. Chunki ona yurt kengliklarida kechayotgan osuda hayot chegaradan boshlanishini ular yaxshi anglaydi. Ha, Vatan ostonadan boshlanadi. Davlat chegarasi mamlakatimizning ostonasi bo'lsa, chegara nazorat o'tkazish maskanlari esa jonajon o'lkamizning darvozasidir.

Ma'lumki so'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni boshchiligidagi o'z burchini sidqidildan ado etayotgan yurt himoyachilarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida harbiy xizmatchilarni zamon talablari asosida barpo etilayotgan uy-joylar bilan ta'minlash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarini Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qismlari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro'tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan chegarachi o'g'lonlar va ularning oila a'zolari uchun yangi xizmat xonadonlarini foydalanishga topshirish marosimi ham quvonchli lahzalarga boy tarzda o'tdi.

Bayram shukuhiga jo'r bo'layotgan karnay-surnay ohanglari ostida bo'lib o'tgan tantanali marosimda so'z olganlar chegarachilarning mashaqqatli va shu bilan birga sharaflari xizmatlarini yuqori baholab, ularning oila a'zolari bilan birgalikda munosib tarzda, tinch-totuv istiqomat qilishi hamda yurt himoyasi yo'lida samarali faoliyat olib borishi uchun davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoit va qulayliklar yaratilayotgani haqida to'xtalib o'tdi.

Ortda qolgan yillar sarhisobi-yu kecha va bugunni qiyosiy taqqoslash imkoniga ega bo'lgan faxriylar ham mamlakatimizda harbiylarning ijtimoiy himoyasini yanada yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar havas qilarli darajada ekanini alohida e'tirof etdi.

Zamonaviy loyihalar asosida bunyod etilgan mazkur inshoot shinam va barcha qulayliklarga egaligi bilan e'tiborli. Jumladan, unda harbiy xizmatchilar oila a'zolarining bandligini ta'minlash maqsadida, to'liq jihozlangan tikuvchilik xonasi tashkil etilgan, shuningdek fitnes zali, kutubxona, bolalar uchun o'yin maydonchalari mavjud.

Mustaqillik bayrami arafasida xizmat xonadonlarining kalitlarini topshirilganidan juda xursandmiz. Bu yuksak e'tibor o'z o'rnida bizda Vatanimizning har qarich tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, yurt tinchligi va xalqimiz farovonligini ta'minlash mas'uliyatini yanada orttiradi, – deydi mayor S. Abdullayev.

Albatta, bunday baxt qo'rg'onlari harbiylarimizning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shib, oila bekalarining quvonchi va farzandlarining sho'x-shodon kulgilarini ta'minlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Hamire QDIRBAYYEVA,
DXX Chegara qo'shinlari



Islohot

SIRDARYODA YANGI TIBBIYOT MASKANI ISHGA TUSHIRILDI

Bugun yurtimizda harbiy xizmatchilarning xizmat va turmush sharoitini yaxshilash, ular uchun munosib infratuzilma yaratish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Zero armiya davlatimizning qudrati, sarhadlarimizning posboni, tinchligimiz kafolatidir.

Ana shunday ezgu islohotlarning yorqin namunasi sifatida Sirdaryo viloyatidagi safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyoni hududida to'liq kapital ta'mirdan chiqarilgan zamonaviy tibbiyot punkti tantanali ravishda foydalanishga topshirildi.

Yangi qiyofa kasb etgan muassasa harbiy xizmatchilarning nafaqat salomatligini mustahkamlashda, balki ularning ma'naviy ruhini ko'tarishga ham xizmat qiladi. Endilikda bu yerda xizmatchilar zamon talablariga mos, sifatli tibbiy xizmatdan bahramand bo'ladi.

Ochilish marosimi ko'tarinki ruhda o'tdi. Unda Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi, harbiy prokuratura, Sirdaryo shahri hokimligi, viloyat Yoshlar ittifoqi kengashi, keng jamoatchilik vakillari va faxriylar ishtirok etdi.

So'zga chiqqanlar kapital ta'mirdan chiqarilgan yangi tibbiyot punktining eng ulug' va eng aziz tantana – Mustaqillik bayrami arafasida topshirilishi quvonchli voqea bo'lganini ta'kidlab, bunday islohotlar davlatimizning armiyaga bo'lgan yuksak e'tiborining yorqin namunasi ekanini ta'kidladi.

Tadbir yakunida qurilish jarayonida alohida fidoyilik ko'rsatgan bir qator harbiy xizmatchilar va qurilish tashkilotlari rahbarlari tashakkurnoma hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Xulosa qilib aytganda, armiyada amalga oshirilayotgan bu kabi islohotlar Vatan posbonlarining xizmatga bo'lgan ishtiyoqini yanada

oshiradi, ularning sog'lom, baquvvat harbiy xizmatchilar sifatida xizmatni davom ettirishlariga mustahkam zamin yaratadi.

**Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati**



Soʻz jangchilari

TEMUR DAVRIDA



BAXSHILAR

qanday tanlab olingan?

Amir Temur davrida soʻz qilich kabi oʻtkir, qoʻshinning ruhi kabi joʻshqin, davlatning obroʻsi kabi muhim sanalgan. Bu zamonda xalqning quvonchi ham, gʻami ham, gʻalabalari va yoʻqotishlari ham, eng avvalo, baxshilar tomonidan doston qilinib, avloddan avlodga oʻtib kelgan. Baxshilar shunchaki doston aytuvchi emas, balki butun bir davrning maʼnaviy xotirasi, tarixiy voqealarning tirik guvohi va ularni badiiy holda xalq ongiga singdiruvchi kishilardan sanalgan.

Shu bois Temur saroyida baxshilarni tanlash masalasi nihoyatda jiddiy va masʼuliyatli jarayon boʻlgan. Nomzod baxshi xalqning turmush tarzini, urf-odat va qadriyatlarini mukammal bilishi, tarixiy voqealarni yoddan ayta olishi, ularni badiiy talqin bilan boyitib, tinglovchini oʻziga rom eta olishi kerak boʻlgan. Ularning ovozi maydon toʻla odamning diqqatini bir nuqtaga jamlashi, soʻzlari esa askarlarga jangovar ruh bagʻishlashi lozim edi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida keltirilishicha, har bir viloyatga yetib borgan **baxshilar xalqning ahvolini, dardini, kayfiyatini, muammolarini surishtirib, sultonga yetkazar, yurt ahlining itoati va qarshilik darajasini maʼlum qilib turgan.**

Bunday isteʼdod egalari sinovdan sinovga solinar, ovozining jarangdorligi, nutqining ravonligi, xotirasining kuchi va eng muhimi, soʻz orqali taʼsir oʻtkazish mahorati sinchkovlik bilan baholanardi.



Saroyga kirishga muyassar boʻlgan baxshilar nafaqat sanʼat ahli, balki Temur saltanatining maʼnaviy qalqoni, xalq va hukmdor oʻrtasidagi mustahkam koʻpriklar vazifasini oʻtaydigan shaxsga aylangan.

Asarda keltirilishicha, **buyuk sulton har bir yurishga ilmiy, soʻzga usta baxshilarni tayinlab, ularga oʻta muhim vazifalarni topshirgan. Ular ishonchli kishilar boʻlib, voqealarni nafaqat yozib borgan, balki xalq orasida tarqatib, tilga koʻchirib yurgan.**

Shuningdek, asarda Temur baxshilarni ehtiyotkorlik bilan tanlab, ularga rasmiy va norasmiy axborotni yetkazish vazifasi yuklatilgani koʻrsatilgan. Ammo bunday yuksak vazifaga har kim ham daʼvogarlik qila olmagan. Baxshilarni tanlash jarayoni oʻsha davrning eng nozik va masʼuliyatli ishlaridan biri sanalgan va bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Har bir bosqichda nomzodning nafaqat ovozi, balki xotirasi, soʻzga boʻlgan mehr-muhabbati sinchiklab toʻrt bosqichda tekshirilgan.

Birinchii bosqichda isteʼdodning uygʻunligi sinovdan oʻtkazilgan. Temur amriga binoan, avvalo, isteʼdod egalari yurt boʻylab izlab topilgan. Ularning ovozi, soʻz yodlash qobiliyati, doston aytish mahorati sinovdan oʻtkazilgan. Dastlab nomzod baxshilar oʻz dostonini yoki xalq orasida mashhur

boʻlgan bir asarni yoddan aytib bergan. Bu jarayonda soʻzlar bir-biriga shunchalik uygʻun kelishi, ohang tinglovchining yuragiga tegishi, goʻyo voqeani oʻz koʻzi bilan koʻrayotgandek his qildirish mahorati tekshirilgan. Temur saroyidagi hofizlar va tajribali baxshilar nomzodning ovoz tembriga, ohangni oʻzlashtirish qobiliyatiga, soʻzlar ortidagi ruhni bera olishiga alohida eʼtibor qaratgan.

Ikkinchi bosqichda xotira va bilim darajasiga qarang. Baxshidan, faqat sheʼr, doston yodlovchi emas, balki xalq xotirasini tirik saqlovchisi boʻlish talab etilgan. Shu bois nomzoddan qadimiy rivoyatlar, shajaralar, tarixiy voqealarni mukammal aytib bera olish soʻralgan. Unga turli yurtlar, qahramonlar yoki qadimiy janglar haqida toʻsatdan savollar berilib, javoblar esa nafaqat mazmun jihatidan, balki badiiy ifodasi bilan ham baholangan.

Uchinchi bosqichda ruhiy taʼsir kuchi tekshirilgan. Temur uchun baxshi – bu nafaqat sanʼatkor, balki jangchi qalbiga ishonch va gʻurur soluvchi ruhoniylar kuchi boʻlgan. Shu sabab nomzod bir necha askar yoki yigʻilgan xalq oldida chiqish qilib, ularni ruhlantirishi talab etilardi. Agar tinglovchilarning koʻzi chaqnaib, yuzida ilhom uchquni porlasa, bu sinovdan muvaffaqiyat bilan oʻtganining belgisi sifatida qaralgan.

Nihoyat, toʻrtinchi bosqichda sadoqat va odob-axloq qoidalari oʻrganilgan. Temur saroyidagi baxshiga



Surat sunʼiy intellekt yordamida tayyorlandi.

xalqning ovozi boʻlishi bilan birga hukmdorning shaʼni va davlatning obroʻsini himoya qiluvchi shaxs sifatida qaralgan. Shu bois nomzodning sadoqati, halolligi, soʻzga boʻlgan masʼuliyati ham sinab koʻrilgan. U shunday odam boʻlishi kerak boʻlganki, qoʻliga yetib kelgan har bir soʻz tosh kabi mustahkam, yurakka urilgan nayza kabi taʼsirchan boʻlishi talab qilingan.

Ana shu toʻrt bosqichdan muvaffaqiyatli oʻtganlarga Temur saroyiga qabul qilinardi, ular bundan buyogʻiga oddiy inson emas, balki el-yurt tarixining ovozi kitobi boʻlib xizmat qilgan.

Shuningdek, ularning qoʻshiqlari va dostonlari saltanatning ovozi, xalq qalbining ohangi boʻlib jaranglagan. **Temur ularni “soʻz jangchilari” deb atar, qilich egasi yurti tan bilan, baxshi esa ruh bilan himoya qilishini taʼkidlagan.** Shu tariqa Temur davrida baxshi boʻlish shunchaki isteʼdod emas, balki el-yurt xizmatidagi yuksak masʼuliyat, davlat va xalq oldidagi sharaflilik boʻlgan. Bugun esa oʻsha baxshilarning ovozi tarixning chuqur qatlaridan eshitilib, bizga vatanparvarlik va soʻz qudratining beqiyos kuchini eslatadi.

Leytenant Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”

Yonimizdagi odamlar

NOGIRON BOLALAR, ULARNING ONALARI, BIZ

Poytaxtning chekkasida, aniqrog'i, Mirzo Ulug'bek tumanining Ahmad Yugnakiy ko'chasida, yana ham aniqroq aytsam, qachonlardir juda taniqli bo'lgan Toshkent traktor zavodi qarshisida yashayman. Hozir ko'proq vaqtimni ochiq havoda o'tkazishga harakat qilaman. Bunday paytda istaysizmi-yo'qmi, atrofni, odamlarni sinchiklab kuzata boshlaysiz.

Bu yerlar yana gavjumlasha boshlagan. Yana deganimning sababi qachonlardir bir necha o'n minglab odamlar ishlaydigan zavod qisqarib ketdi. Uning serdaraxt hududida turar-joy binolari qurildi. Ishchilar bilan gavjum bo'ladigan joylar ma'lum bir vaqt huvullab qolgan edi. Hozir esa bozor kengayib ketdi, yangi kiyim-kechak do'konlari, oshxonalar... Meva-chevalar, sabzavot va poliz mahsulotlari to'kinligi ko'zingizni to'ydiradi, yashnatadi.

Ammo gap shusiz ham ko'rinib turgan to'kinchilik haqida emas. Bahor oylarida piyodalar yo'lakchasi kovlanib, allaqayerga trubalar o'tkazildi. Avval qazib chiqildi, ancha vaqt ochiq yotdi, jazirama issiqlarda daraxtlarning ildizlari ochilib, bir achinarli manzara paydo bo'ldi. Keyin trubalar tashlanib, ko'mildi. Ha, ko'mildi! Yo'lak naridan-beri tekislandi, o'ydim-chuqur va butun yoz davomida tuproq qaynadi, o'zgarish yo'q.

Nazarimda, bu holatga ko'zlarimiz ko'nikib ham qoldi. Odamlar tuproq kechib o'tib-qaytyapti, yomg'irlar yog'a boshlasa, qanday holga tushishi ayon. Sabr bilan kutasan, balki, yo'lga deyarli taqab qurilgan ko'p qavatli imorat qurilishi bitib qolsa, tartibga tushar. Ehtimol. Balki... Faqat ba'zi-ba'zida ayrim holatlarga ko'zing tushganida yuragingda bezovtalik paydo bo'ladi.

...ODATDAGI KUNLARNING BIRI. Dorilarim tugagan edi. Ko'chaga chiqib, piyodalar yo'lakchasidan yursammi yoki haydovchilardan so'kish eshitsam ham, katta yo'lning chetidan yursammi, deb o'ylanib tursam, katta yoshli kishi aravasini g'ildiratib o'tib qoldi, terga tushib ketibdi. U kelgan tomonga qaradim,

aravasi yengil harakatlansa ham bunday notekis tuproq yo'lda yurishning o'zi emas. Ko'rinishidan qimmat, baquvvat arava. Ammo yo'lak... Ikki-uch qadamdan so'ng aravacha yurmay qoldi. Klinikaga kirish joyida bir nechta chuqurchalar bo'lib, arava g'ildiragi bittasiga tushsa ham odam bilan ag'darilib ketishi turgan gap edi. "Keling, yordamlashaman", deb besh-olti qadam aravaning yurishiga ko'maklashdim...

Negadir shu manzara ko'zimdan, xotiramdan ketmay qoldi.

Bu yo'laklar... Qazilmasdan avval ham avlo emas edi aslida. Har holda tuzukroq edi, vayron bo'lmagan edi. Keyin hamma nogironlarning ham aravasi yo'q. E'tibor bergan bo'lsangiz, biz, o'zbeklar negadir imkoniyati cheklangan yoki boshqalarga o'xshamaydigan farzandlarimizni uydan chiqarmaslikka harakat qilamiz. Nega? Tug'ma nuqson uyatlimi?! Axir bu bolaga bog'liq emas-ku?! Ko'p hollarda o'jarlik bilan qabul qilgan qarorlarimiz mevasi...

Menda imkoniyati cheklangan bolalar yoki kattalarning statistikasi yo'q. Ammo ba'zi narsalarni kuzataman, ba'zi insonlar taqdiridan, chekiga tushgan og'ir yukidan xabardorman.

Rahmatli Shahodat opamning dugonalari ko'p edi. Balki, ko'p bo'lmagandir, ammo o'zim bilan solishtirsam ko'p edi. Bir kuni ko'chada sochlari oqarib ketgan oq-sariq ayol bilan bir-birlariga "dugona-dugona" deb gaplashib qoldilar. Ayol negadir yig'ladi, opamning ham ovozlari titrab, unga qo'shilganidan bezovta bo'ldim. "Sochlari oppoq bu ayol qanaqasiga opamga dugona bo'ladi, opam ulardan ancha yosh-ku?" deb o'ylaganim yodimda. O'zlaridan ham so'rgan edim. O'shanda dugonalarining ikki aqli zaif qizi borligi, ulg'aygani sari ularni eplash qiyinlashib borayotganini, bugun ularni derazalari panjarali kichik xonaga qamab, majburlikdan ko'chaga yumush bilan

chiqqanini aytganlar. O'qituvchi opam tilidan chiqqan "aqli zaif" so'zining ma'nisini tushunmaganman, ammo u kap-katta ayollarni yig'latadigan og'ir so'zligini his qilganman.

Bunday farzandlari bor ayollarga juda og'ir. Ular xuddi mahkumlarga o'xshaydi, mahkumlarki ozodlikka chiqish imkoniyati yo'q.

QARSHIMIZDAGI "DOM"DA BIR AYOL BOR. U qizimning dugonasi. Erta turmushga chiqdi. To'g'rirog'i, erta uzatildi. Uning ham shunday "og'ir yuki" bor. Hech narsani angamaydigan, baqrayib yotaveradigan. Ovqat yeydi, tagini ho'llaydi... Kundan kun o'syapti. Ayol yosh, yigirma beshga kirgandir. Ammo bola otli qayg'usi uni qaritgan. Uy yumushlari, ikkinchi homiladorlik, er, qaynona-qaynotaga qarash, mehmonlar kutish, ular kelganida bola yotgan uy eshigini qulflab qo'yish... Qulflab qo'ymasa-chi? Mehmonlarning shu bolaga ko'zi tushsa, nima bo'ladi? Axir bu bola mavjud-ku! Bunday og'ir yukni yolg'iz o'zi ortmoqlab yurgan juvonga ham shafqat ko'rsatsalar, uning matonatiga tan berib, yaxshi gaplar bilan ko'nglini ko'tarsalar, xasta bolani tashqariga olib chiqib, shamollatib, yosh ona yukiga ozgina yelka tutsalar, qanday ulug' savob bo'lardi, qarindoshlar, yaqinlar...

Bunday yuk bilan yashayotgan ayollarga juda og'ir.

Yo'l yoqasida uydan ayol bo'yi bo'yiga teng shalvirab yotgan bolasini ko'tarib chiqib, qiyinchilik bilan aravasiga o'tqizdirdi. O'tqizdirishdan avval harsillab qolgan ayol bir nafas tin oldi.

Ayolning bu yuki juda og'ir.

Bolalar suyak sili sanatoriyasi. Aravachadagi o'n-o'n bir yoshli bola injiqlanib yig'laydi, ona bag'riga uzoq bosib turadi. Uchrashuv vaqti tugadi, ketishi kerak, bola ajralgisi kelmaydi. Ona uni aravadan olib, avaylab ko'taradi...

past ovozda unga tasalli beradi. Bola og'irgina, ona charchaydi, ammo qo'ldan qo'ymaydi. Ixtiyorsiz shoiraning nogiron o'smir bolasini beshinchi qavatga ko'tarib chiqayotgan ayolga bag'ishlangan shu so'zlarini pichirlayman: "Bolam menga yuk

emas..." Ziyoratiga borganim qumri kabi qizaloq menga ajablanib qaraydi.

"Aravani buzib qo'yasiz, hovliga olib chiqmang", deydi hamshira zardali ohangda yana bir onaga.

Ona o'ziga tenglashayotgan polvongina bolasini ko'tarib, aravachani qoldirib, zinalardan pastga tusha boshlaydi.

Chidolmayman. Hamshirani savolga tutaman: "O'z-o'zidan buzilmaydi-ku? Buzilsa, nima bo'ladi?"

"Buzilsa, bizdan undirib olinadi, o'zi maoshimiz kam bo'lsa".

Ruhimda bir qorong'ilik bilan tashqariga yo'l olaman. Hovlida bolasini ko'tarib yurgan ayolga ko'zim tushadi. Yoniga borib nimadir deb tasalli bergim keladi, ammo kerakli so'zni topa olmayman. U bilan avval ham gaplashgan edim. Surxondaryodan kelibdi. Kunduzi kunlik ishlarda ishlab, kechda bolasining oldiga kelar ekan. Ijara uyiga faqat yotish uchun borar ekan. "Menga o'xshaganlar ko'p", degan edi.

Qanchalar og'ir yuk. Ayolga bunday yuk bilan yashash ko'p og'ir.

Keling, ey himmatli insonlar, suyak yemirilishi xastaligi bilan uzooq davolanishga mahkum bolalar uchun ular davolanayotgan muassasalarga aravachalar hadya qiling.

O'z dardi bilan, og'ir yuki bilan yolg'iz qolgan onalarni qo'llab-quvvatlaylik.

Bolalarimizga ularga o'xshamaydigan bolalarga shafqat ko'rsatishni go'daklikdan o'rgataylik. Ular ham hayotimizning bir qismiga aylansin.

YO'LLAR, YO'LAKLAR... Azizlar, ko'chalarda yurganingizda, bir lahzaga bo'lsin, o'zingizni aravachada tasavvur qilib ko'ring. Sog'lom odam yurishi mushkul bo'lgan yo'laklar bor. Nomigagina, zamon talabi bo'lgani uchun qurilgan panduslarga sizning ham ko'zingiz tushganmi? Ayrimlari tik qoyaga o'xshaydi, chiqib bo'lmaydi, tushishda o'qdek otilladi, hatto oddiy bolalar aravachasi bilan eplab tushib bo'lmaydi.

Bularga e'tiborsiz bo'lmaylik. Yo'laklarda aravachalarda yurish ham navbatdagi azobga aylanmasin.

Ey siz, og'ir yukni ortmoqlab yashayotgan ayollar, bu yuqingizdan xijolat bo'lmang, ularni kishilar ko'zidan pana qilmang, imkoningiz yetganicha ularni tashqi olam bilan tanishtiring. Ishonaman, tashqarida sizga hamdard bo'ladigan, yordam qo'lini cho'zadigan ochiq qalbli insonlar qarshingizga chiqadi.

NEGA BU HAQDA YOZDIM? Ijtimoiy tarmoqlarda boshini tik tutib turolmasdan chayqalayotgan o'smir qiziga ovqatni chaynab, og'ziga tutayotgan fidokor bir onani ko'rdim. Bolasi nogiron tug'ilgani uchun ota tashlab ketgan ekan. Ayol yolg'iz boshi bilan kurashyapti, kasalxonama-kasalxona yurishdan to'xtamayapti...

Ular yonginamizda, balki, qo'shnimiz, balki, qarindoshimiz, balki, butunlay begonadir. Insonlar, biz bir-birimizga mas'ulmiz!

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"



“Millat fidoyilari”ga sayohat

HAR BIR BITIKDA jasorat

Muallif suratga olgan



Millatning ma'naviy qudrati avvalo uning o'z o'tmishini qanday qadrlashi, tarixiy xotirasiga qanday munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi. Tarix bu faqat o'tgan avlodlar hayoti emas, balki bugungi kun va kelajak uchun ma'naviy ustun, ruhiy tayanchdir. Shu bois Yurtboshimiz o'z nutqlarida tarixiy xotiraga tayangan holda xalqimizda faxr va iftixor tuyg'usini yuksaltirishni milliy o'zligimizni asrab qolishning eng muhim shartlaridan biri sifatida ta'kidlaydi. Chunki o'tmishini unutgan millat kelajakka yo'l topa olmaydi. Ayniqsa, bugungi o'zgarib borayotgan zamonda yoshlarni yuksak ma'naviyat, tarixiy merosga hurmat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash nafaqat dolzarb, balki hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

Ayni maqsadda poytaxtimizda joylashgan “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasidagi “Millat fidoyilari” xiyoboniga respublikamizdagi talaba-yoshlar, askarlar, Qurolli Kuchlar faxriylari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik ekskursiyalar uyushtirib kelinmoqda.

Respublikamizdagi yoshlarni qamrab olayotgan ushbu tadbirda ayniqsa “Millat fidoyilari” xiyoboni yoshlarda katta taassurot qoldirib, ularda yurtga muhabbat, fidoyilik va burchni shara bilan ado etish kabi ulug' fazilatlarini uyg'otmoqda.

– “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasiga Qashqadaryo viloyatidan keldik, – deydi Qarshi davlat texnika universiteti talabasi Dildora Hamdamova. – Bu yerdagi yodgorliklar bizda katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, “Millat fidoyilari” monumenti haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik. Vatan himoyasi yo'lida mardonavor halok bo'lgan o'g'lonlar haqida oldin eshitardik, kitoblarda o'qirdik. Bugun esa ularga o'rnatilgan yodgorliklarni o'z ko'zimiz bilan ko'rib, yoshligi, oila a'zolari haqida ham bilib oldik. Shu orqali ularning Vatan tinchligi yo'lida bosib o'tgan mashaqqatli yo'li qanday og'ir bo'lganiga yana bir bor guvoh bo'ldik.

Chindan ham, bog'da joylashgan xotira bitiklari oddiy eksponatlar to'plangan joy emas, balki tariximizning eng mashaqqatli sahifalarini jonli namoyon etuvchi, minglab fidoyi yurtdoshlarimizning mardlik va matonatini aks ettiruvchi bebaho merosdir. Ushbu majmua nafaqat shonli o'tmishimizni eslatadi, balki bugungi avlod vakillari uchun ibrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

– Bog'ni aylanar ekanmiz, Vatan tinchligi yo'lida kurash olib borgan qahramonlarimizga o'rnatilgan yodgorliklarni ko'rib, go'yo o'sha

davrga tushib qolgandek bo'ldim, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanidan tashrif buyurgan Fozil Qurbonboyev. – Ayniqsa, bog' hududida joylashgan “Shon-sharaf” muzeyiga kirganimizda urush qatnashchilari haqidagi ma'lumotlar bizda katta qiziqish uyg'otdi. U yerda Ikkinchi jahon urushida qatnashgan bobom haqidagi ma'lumotlarga ko'zim tushdi va uning qiyofasi ko'z o'ngimda gavdalangandek bo'ldi. Men uydin bobomning medallarini muzeyga topshirish uchun olib kelgandim. Ishlarimni ado etgach, bobom haqida hali yozilmagan ma'lumotlarni ham yig'ib, muzeyga taqdim etishni niyat qilib qo'ydim.

Davlatimiz rahbarining g'oyasi asosida tashkil etilgan “Millat fidoyilari” monumnti mustaqillik yillarida mamlakatimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining xotirasiga bag'ishlangan. Majmua yuqoridan qaraganda davlatimiz bayrog'idagi yarim oy va o'n ikki yulduz shaklida namoyon bo'ladi. Qariyb ikki metrli yulduzlarning qirralari bitiktosh vazifasini ham o'taydi. Ularning yon taraflariga 196 nafar qahramonimiz nomi zarhal harflar bilan yozilgan. Bu bitiklar yoniga monitorlar o'rnatilgan bo'lib, millat fidoyilari to'g'risida ma'lumotlar foto va videolar orqali namoyish etib boriladi. Ya'ni ularning faqat nomi emas, balki bolaligi, orzulari va oilasi ko'z oldimizda jonlanadi.

Shubhasiz, ushbu ekskursiyalar orqali yurt tinchligi yo'lida jonfido qilgan harbiy xizmatchilar nomi va ularning jasorati aks etgan bitiklar yoshlar qalbida tinchlik qadrini, mardlik va fidoyilik tuyg'ularini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Leytenant Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”

Voqeiy hikoya

O'TGAN KUNLAR



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

Safarboy umrining so'nggi kunlarini yashayapti. Uni olti oy avval ko'rgan odam birdan taniy olmasligi shubhasiz. Vujudini egallagan bedavo dard tufayli cho'p-ustixonga aylangan gavdasi keyingi ikki-uch kun ichida to'shakka butunlay mixlanib qoldi. Biroq yashashga bo'lgan ishtiyoq uning tiyrak ko'zlarini tark etmagan. Ammo behollik yengib, ko'zi yumildi deguncha obkom birinchi sekretarining suyagi mehnatda "Buni tezda qamoqqa tiqing!" degan so'zi qulog'i ostida jaranglab, cho'chib uyg'onib ketar, o'tgan voqealarni eslashga yuragi bezillardi. U nimada xato qildi, nimada? Hamon anglay olmasdi.

Safarboyning suyagi mehnatda qotgan. Qishloq bolasi bo'lgani uchun yerga erta mehr qo'ygan yigit shu sohada sirtidan ta'lim olib, dastlab kolxozda brigada tabelchisi, keyinchalik brigadirlik vazifasida ishladi. Paxtachilik ilmining mirishkori, mehnatkash va fidoyiligi sabab tez orada tumanga tanildi. Uning yetakchiligidagi jamoa paxta topshirish rejasini viloyatda ham birinchi bo'lib, yildan-yil oshirib bajargani uchun nomi respublika gazetalaridan tushmasdi. Kolxoz raisi uni eng qoloq brigadaga boshchi qilib qo'ysa ham, tajribasi va tinib-tinchimasligi omad keltirardi unga. Xotini Hayitgulning:

– Faqat dalani o'ylab, uyingizni esdan chiqarib qo'ymang, dadasi, – degan nolishiga:

– Xalqimiz jannat yanglig' kommunizm qurishga harakat qilsa-yu, sen uy deysan-a! Davlatimizga buning uchun bizning mehnatimiz, bizning paxtamiz zarur! – qat'iy javob qaytarardi Safarboy.

Orasi bir, bir yarim yoshdan tug'ilgan o'n bitta bolaga bosh bo'lib turgan ayolining ham daladan qolmasligini istardi u.

Shunday kunlardan birida uning brigadasiga kolxoz raisi keldi. Safarboy bilan dalalarni aylanib chiqdi. Oxirgi chopiqdan chiqqan shoda-shoda ko'sakli g'o'zalar to'kin xirmondan dalolat berib turardi. Bu mo'l hosilda o'zining ham katta hissasi borligini eslatib qo'ygisi keldimi yoki raisning paxtachilikdagi tajribasi brigadimikidan yuqori ekanini isbotlashni istadimi, kolxoz rahbari g'o'zalarga yangi ishlov berish yuzasidan Safarboyga buyruq berdi:

– Mana bu o'n gektarlikni bir hafta sug'orishdan to'xtatdinglar! G'o'zalarning ko'sagidan ko'ra bargi rivojlanib ketibdi.

ARMONI

– Bu yer namni o'zida uzoq saqlolmaydi. Agar bir hafta suvdan qolsa, g'o'zalarning yangi shonalari to'kilib ketishi mumkin, – e'tiroz bildirdi brigadir.

O'n besh yil davomida kolxozning barcha brigadalariga boshchilik qilib chiqqan Safarboy hamma yerning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishini rais anglab turgan bo'lsa-da, rahbar sifatida so'zidan qaytgisi kelmadi. O'rtada tortishuv bo'lib o'tdi, rais buyrug'i bajarilmadi.

Tez orada qahramonga aylanib, "burni osmonga ko'tarilib ketgan" brigadining muhokamasi raykom birinchi sekretari va uning yaqin odami bo'lmish kolxoz raisi o'rtasida ko'rib chiqildi. O'zboshimcha brigadining popugini pasaytirib qo'yish chorasi belgilandi.

– Uzog'i bilan o'n kun ichida obkom birinchi sekretari rayonimizga keladi. Albatta, kolxozingizga olib boraman. Siz u yog'ini tezda to'g'rilab qo'ying.

Buyrug'ingizni shu bugun qoyillataman, – qo'lini ko'ksiga qo'yib ta'zim qildi rais.

Ertasiga Safarboy ming bir sabab bilan eng qoloq brigadaga boshchi qilib o'tkazildi. Kuz yaqinlashib, hosil taqdiri hal bo'lib qolgan bir paytda yaxshi ishlov berilmagan, ba'zi paykallardagi o't bosib ketgan nimjon g'o'zalarni o'nglab olish oson ish emasdi. Biroq o'tgan ish uchun raisning shu usulda o'ch olganini o'zicha tushungan yigit ortga chekinmadi. Mehnatda pishgan, polvonsifat, keng yag'rinli g'avdasiga mos shijoatini ishga soldi. "Hukumatimiz o'n yildan buyon orden-u medallar bilan taqdirlaydi meni. Bu hurmat, bu ishonchga albatta loyiq bo'lishim kerak!" – o'zining xayollaridan ruhlanib, tun bilan kunning farqiga bormay mehnat qilardi.

O'sha kungi mash'um voqea hamon esida. Kolxozga, shuningdek Safarboyning brigadasiga ham obkom birinchi sekretarining kelish xabari yetkazildi. Qoloq brigadada endigina ish boshlagan yigit

biroz shoshib qoldi. Dala shiyponi tartibga keltirildi, shiyponga kelish yo'llariga suv sepib chiqildi. Harqalay shu atrofdagi yerlarga birinchi bo'lib ishlov berishni unutmagandi u. Shuning uchun ko'ngli biroz xotirjam tortdi. Ammo hammasi o'ylaganidan o'zgacha bo'lib chiqdi. Tushga yaqin shoshilib kelgan rais haydovchisi:

– Tez bo'ling, obkom sekretari boshchiligidagi komissiya a'zolari brigadangizning eng chekka yerini tekshiryapti, – deya olib ketdi.

Safarboy yetib borganida bir qator yengil mashinalar dala yo'lida tizilib turar, o'n-o'n besh chog'li qora shlyapalig-u ichki ishlar xodimi obkom boshchiligidagi paykal ichida g'o'zalarning ahvolini ko'zdan kechirardi. Bu yer brigadaning eng og'ir ahvoldagi paxta maydoni ekani, ishlov berish navbati hali bu yerga yetib kelmaganini o'ylab, uning oyoq-qo'llari bo'shshib ketdi. Brigadirga ko'zi tushgan obkom sekretari undan izoh ham talab qilmay, nafratini to'kib soldi:

– Dalani qay ahvolga keltirib qo'yding, nonko'r'?

Salom-alik o'rnida aytilgan bu zaharxanda gapga javoban Safarboy holatni tushuntirmoqchi bo'lib og'iz juftlagan ham ediki, kolxoz raisi unga "gap qaytarma" ishorasini qildi.

– Paxtaning dushmani davlatimiz dushmani, xalqimiz dushmani! Tezda qamoqqa tiqing bu munofiqli! – qat'iy buyruq berdi obkom sekretari.

So'roqsiz, javobsiz yaqin besh oy mahkumlikda o'tirgan Safarboyning yaqinlari ming bir harakat-u yugur-yugurlar bilan og'ir dardga chalingan holatda qamoqdan chiqarib oldi. Biroq yigit uchun o'n yilga tatigan bu jazo o'zining shafqatsiz hukmini o'tkazib ulgurandi.

Safarboyning xayolini tashqaridan bir-birini quvalashib, chopqillab kirib kelgan g'o'ilchalari bo'lib yubordi. Ikkovi qandaydir o'yinchoqqa talashib, tortisha ketdi. Onalarining:

– Dadangizning oldida shovqin qilmanglar, ko'ryapsizlar-ku, mazasi yo'q, – deya hay-haylashiga ham parvo qilmasdi ular.

Bolalariga tinmay dakki berayotgan xotinini Safarboy oldiga chaqirdi.

– Bolalarni urushaverma, ular hali go'dak-ku. Shularning sunnat to'yini qilib berish ham bo'ynimda qarz ketadiganga o'xshaydi, – behol gap boshladi u.

– Dadasi, yoshingiz qirqqa bormay turib chollarning gapini gapirasiz-a. Bu dardlarni ko'rmagandek bo'lib ketasiz hali, – o'pkasi to'lib uning so'zini bo'ldi Hayitgul.

– Sandiqdagi senga bergan omonatimni ol, – xotining so'ziga e'tibor qilmay, gapini davom ettirdi Safarboy. – O'sha tuguncha ichida bolalarbop o'yinchoqlar bor.

Hayitgul biroz o'ylanib turdi-da, erining nima haqida gapirayotganini tushundi. U sandiq ustini ko'rpalardan bo'shatib, Safarboy uchun nihoyatda aziz va qimmatbaho bo'lgan tugunchani oldi va erining ishorasi bilan uni yechdi. Tuguncha ichidagi orden-u medallarni ko'rgan to'rt va uch yoshdagi bolakaylar tortishib turgan o'yinchoqlarini ham tashlab, onasi yoniga shoshildi.

– Ularni bolalarimga ber, o'ynasin, – dedi asta Safarboy.

Bir hovuch bu "yaltiroq o'yinchoq"larni ko'rgan bolalarning ko'zlari chaqnaib ketdi. Ular teng bo'lishib olgan orden va medallarni ko'kraklariga taqib ko'rishga harakat qilar, vijirlashib bir-birlariga tinmay maqtanardi.

– Mana, menikida Lelin bobomning rasmi bor.

– Senikidan baribir meniki chiroyli, quyosh bilan paxtaning rasmi yaltirayapti...

Safarboy yotgan joyida o'g'ilchalarining harakatini kuzatib ma'yus jilmaydi. Farzandlariga oxirgi marta qachon o'yinchoq olib berganini eslashga harakat qildi. Yo'q, eslay olmadi. Ortida qolayotgan, kattasi endigina o'n yettiga o'tgan o'n bir farzandning kelajagini o'ylab, ko'ksida nimadir uzilgandek bo'ldi. Achchiq yoshga to'lgan ko'zlarini ma'yus yumdi...

Zulfiya YUNUSOVA

Tibbiy ko'rik

SALOMATLIK – ENG KATTA BOYLIK



O'tgan yillar davomida mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish, ularning salomatligini asrash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ravishda doimiy tibbiy ko'rik amalga oshirilmoqda.

Mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlikning Farg'ona viloyati va Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismlarida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun tashkil etilgan chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik fikrimizning yaqqol dalilidir. Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda o'tkazilgan

ushbu tadbirda okulist, pediater, onkomammolog, travmatolog, terapevt, onkoginekolog, dermatolog, stomatolog, oftalmolog, lor, nevrolog, endokrinolog kabi malakali shifokorlar ko'rigi tashkil etildi, shuningdek UTT va EKG tekshiruvlaridan o'tkazildi. Mudofaa vazirligining Call markazi amaliy psixolog

mutaxassislar tomonidan esa psixologik suhbatlar ham tashkil etildi.

Jami 200 nafardan ortiq oila ishtirok etgan tibbiy ko'rik davomida 2 nafar harbiy xizmatchining otonasiga Farg'ona viloyati ko'p tarmoqli shifoxonasida statsionar va ambulator davolanishlari uchun imtiyozli yo'llanma berildi.

Kapitan A. SAFARALIYEV
TOQQQ matbuot xizmati

Yong'in xavfsizligi

HAYOTINGIZNI XAVFGA QO'YMANG!



Avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari kundalik hayotimizda qulaylik yaratish bilan birga katta mas'uliyatni ham talab etadi. Chunki bu yerda xavfsizlik qoidalariga rioya etish nafaqat texnika, balki inson hayotini asrashning ham eng muhim shartlaridan biridir.

Qonunchilikka ko'ra, avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari (*keyingi o'rinlarda – AGQSh deb yuritiladi*) hududida gaz sizib chiqishi aniqlansa, hududda begona shaxslar bo'lmasligini ta'minlash, shoxobchadagi va undan 50 m radiusda joylashgan barcha avtomobillarning dvigatellari o't oldirilmassligini nazorat qilish hamda yuzaga kelgan holatni bartaraf etish choralari ko'rilishi kerak.

Gaz ballonli transport vositalariga AGQSh va AGTKShlarda quyidagilar taqiqlanadi:

- maishiy gaz ballonlarini to'ldirish;
- texnik ko'rikdan o'tkazish muddati tugagan ballonlarni to'ldirish;
- AGQSh, AGTKSh hududida uning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan ishlarni bajarish;
- avtosisternadan suyultirilgan gazni to'kib olish vaqtida gaz ballonli avtomobillarning ballonlarini to'ldirish

(bunday vaqtlarda obyekt hududiga kirishni taqiqlovchi belgi o'rnatilishi kerak);

- suyultirilgan gaz quvurlaridan yerlantiruvchi to'k'kazgich sifatida foydalanish;
- zichlash materiallari yaroqsiz holga kelgan yoki germetik-mahkamligini yo'qotgan suyultirilgan gaz quyuvchi nasos va kompressorlaridan foydalanish (*bunda nasosning zichlash materiallari va germetik-mahkamlagichlar yog' va benzina chidamli bo'lishi lozim*);
- gaz ballonli transport vositalarining dvitageli ishlab turgan holatda, shuningdek gaz ballonlari avtomobilning bagaj qismida joylashgan bo'lsa, avtomobil kapoti va bagaj qopqog'i yopiq turgan vaqtda yonilg'i quyish;
- bosim ostida turgan gaz quvurlari va apparatlarining gayka yoki ulanmalarini qotirish hamda ularni metall jismlar bilan urish.

Xulosa qilib aytganda, gaz ballonli transport vositalariga yonilg'i quyishda har bir qoida, har bir talab – hayot va xavfsizlik kafolati demak. Bunday talablarga qat'iy amal qilish orqali biz nafaqat shaxsiy xavfsizligimizni, balki atrofda yashovchilarning osoyishtaligini ham ta'minlaymiz.

Zero e'tiborsizlik bir lahzada halokatga sabab bo'lishi mumkin, mas'uliyat esa xavfsiz, tinch va xotirjam hayot yaratadi. Shunday ekan, hayotingizga doim mas'uliyat bilan yondashishga odatlaning!

Podpolkovnik O'. XAITOV,
TOQQQ BA Yong'in xavfsizligi xizmati boshlig'i

Jahon chempionati

SPORTCHILARIMIZDAN
OLTITA MEDAL

Vengriya poytaxti Budapesht shahrida sportning kemamodel turi bo'yicha jahon chempionati musobaqasi bo'lib o'tdi.



O'n uchta davlatdan ishtirok etgan 120 dan ortiq sportchi ushbu nufuzli musobaqada o'zlari tomonidan yasalgan kema modellarining suvda harakatlanish imkoniyatlarini namoyon etdi.

Quvonarlisi, do'stona va murosasiz kechgan chempionatning shaxsiy birinchi bahslarida "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat O'zbekiston terma jamoasi yirik natijalarni qo'lga kiritib, 2 ta oltin, 3 ta kumush va 1 ta bronza medalga sazovor bo'ldi.

Jumladan, katta yoshdagi o'zbekistonlik sportchilar tomonidan quyidagi natijalarga erishildi:

1. Marat Xakimzanov: "S-5" sinfida 1-o'rin, "S-3" sinfida 2-o'rin (Toshkent sh.).
2. Aleksandr Nemerjitskiy: "S-6" sinfida 3-o'rin (Andijon v.).

Qizg'in kechgan bahslarda o'smir yoshdagi hamyurtlarimiz mohir sportchi ekanini isbotladi:

1. Albina Xakimzanova: "S-5" sinfida 1-o'rin (Toshkent sh.).
2. Umidjon Tojimaxamatov: "S-6" sinfida 2-o'rin (Toshkent sh.).
3. Safiya Xakimzanova: "S-7" sinfida 2-o'rin (Toshkent sh.).

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti jamoasi ushbu sportchilarni samimiy muborakbod etib, kelgusida bundan-da yuksak yutuqlarga erishishlarini tilaydi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Ma'naviyat kuni

Mashg'ulotlar
O'TKAZILDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida Ma'naviyat kuni doirasida mahkama va hududiy harbiy prokuraturalar xodimlari ishtirokida qator tadbirlar tashkil etildi.

Xususan, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professori tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davrida huquqiy targ'ibot-profilaktika tadbirlarini tashkil etishda tinglovchilar bilan muloqotga kirishish masalalarida mahorat darsi o'tildi.

Jarayonda huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish bosqichlari, jumladan mavzuni tanlashga qo'yiladigan talablar, tadbirni rejalashtirish, tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish, natijalarini rasmiylashtirish va samarasini o'rganish, shuningdek auditoriyani o'rganish va his etish, tinglovchilar bilan ta'sirchan muloqotga kirishish va bunda nutq mahoratining o'rni xususida atroflicha fikr-mulohaza almashildi.

Shundan so'ng harbiy prokuratura organlari tergovchilari va sudlarda prokuror vakolatini ta'minlash yo'nalishiga mas'ul xodimlar ishtirokida o'quv-seminar tashkil etildi.

Unda Bosh prokuraturaning prokuratura organlari tergov tarmoqlari faoliyati ustidan nazorat boshqarmasi, shuningdek fuqarolik va jinoiy sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlash boshqarmalari vakillari tomonidan mahorat darslari o'tildi.

Mashg'ulotlarda ishni sudgacha yuritish va sudda ko'rib chiqish bosqichlaridagi muhim jihatlari, yosh xodimlar, xususan yosh tergovchilarning amaliy ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish tadbirlari hamda sohaga doir boshqa masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Adliya polkovnigi Tohir JO'RAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Profilaktika

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Toshkent viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tuzilmalarida o'rganishlar olib borildi.

KO'RSATMALAR
BERILDI

Jumladan, Chirchiq shahri favqulodda vaziyatlar bo'limida xizmat o'tash sharoitlari, navbatchi guruhlar va maxsus texnikalar shayligi hamda faoliyatga doir boshqa masalalar o'rganildi.

Jarayonda mutasaddi organlar va idoralar bilan tezkor axborot almashinuvi, yong'in xavfsizligini ta'minlash va boshqa funksional vazifalar ijrosiga alohida e'tibor qaratildi.

Huquqbuzarliklar, jumladan korruptsiya holatlarining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga ahamiyat berildi.

Yakunda mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

Adliya mayori
Aziz JAMOLIDDINOV,
Chirchiq harbiy prokurorining katta yordamchisi

Ijtimoiy himoya

QURILISH
JARAYONI
O'RGANILDI

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori O. Xolboyev tomonidan Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida o'rganishlar olib borildi.

Jarayonda hududda harbiy xizmatchilar uchun barpo etilayotgan ko'p qavatli uyda amalga oshirilayotgan qurilish ishlari ahvoli o'rganildi.

Unda byudjet mablag'lari iqtisod qilinishi, ishlarning shartnomadagi muddatda bajarilishi, tegishli qonunchilik talablari, shu jumladan texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi masalalariga e'tibor qaratildi.

Qurilish jarayonida energiya tejamliligini ta'minlash, energoresurslardan maqsadli va unumli foydalanish masalalariga alohida urg'u berildi.

Yakunda o'rganilgan masalalar yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

Adliya podpolkovnigi
Ixtiyor AKBAROV,
Chirchiq harbiy prokurori

Minifutbol

Harbiy prokuratura organlari tomonidan sportni ommalashtirish borasida qator amaliy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Bu kabi tadbirlar istiqbolimizning 34 yilligi arafasida yanada jadallashgan.

HARBIY
PROKUROR
KUBOGI

Xususan, "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida Qashqadaryo viloyatidagi kuch tuzilmalarida xizmat qilayotgan yosh harbiy xizmatchi va xodimlar o'rtasida sportning minifutbol turi bo'yicha "Harbiy prokuror kubogi" tashkil etildi.

Musobaqalar Harbiy aviatsiya instituti stadionida o'tkazildi.

To'rt kun davomida kechgan qizg'in va murosasiz bellashuvlarda faxrli o'rinlarni quyidagi jamoalar egalladi:

1-o'rin – Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism jamoasi;

2-o'rin – IIV Qorovul qo'shinlari tizimidagi harbiy qism jamoasi;

3-o'rin – DXX Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism jamoasi.

Adliya podpolkovnigi
Hasanboy AHMADJONOV,
Qarshi harbiy prokurorining katta yordamchisi

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Surxondaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Qiziriq tumani o'quv sport-texnika klubida yoshlarni ijtimoiy-foydali va ommaviy vatanparvarlik ishlariga ko'proq jalb etish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

ZAMON

talablariga mos faoliyat



Xususan, bunday tadbirlar, ayniqsa mamlakatimiz mustaqilligining 34 yillik bayrami arafasida yana ham izchil tus olmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida o'tkazilayotgan tadbirlar shular jumlasidandir.

– Chunonchi, bu yo'nalishdagi ishlar ko'lamini sezilarli darajada oshirish maqsadida tashkilotimizning viloyat kengashi, tuman hokimligi, harbiy qismlar, mudofaa ishlar, maktabgacha

va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi hamda mahallalar bilan hamkorlikda qator tadbirlar tashkil etilmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Ne'matilla Alimov.

– Muhimi, "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan bu kabi tadbirlar yoshlarning qalbida ona yurtga muhabbat va sadoqat hissini, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tuman o'quv sport-texnika klubida bo'lajak haydovchilar uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilgan. Boisi 2022-yilda tashkilot markaziy kengashi tashabbusi bilan barpo etilgan

klubning yangi o'quv binosida ma'naviyat-ma'rifat xonasi, axborot-resurs markazi, o'quv xonalari, turli rusumdagi o'quv-mashq avtomobillari va boshqa o'quv inshootlari faoliyati izchil yo'lga qo'yilgan.

Ayni paytda bu yerda "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash, shuningdek qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, yoshlarning jismoniy faolligini yanada oshirishga ko'maklashish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun ham keng imkoniyatlar

yaratilgan. Shu kunlarda klubda faoliyat yuritayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi to'garaklar faoliyati zamon talablari asosida tashkil etilgan. Bu seksiyalarga o'ttiz nafar iqtidorli yosh jalb etilgan.

O'z navbatida, tumandagi o'quv muassasalari va mahallalardagi yoshlar o'rtasida sport musobaqalari muntazam tashkil qilinmoqda. Jumladan, havo miltig'idan o'q otish musobaqalariga ishtirokchilarning qiziqishi katta. Buning isbotini shu sport turi bo'yicha bellashuvlarda qatnashuvchilarning safi yil sayin kengayib borayotganida

ham ko'rish mumkin. Bundan ayonki, keyingi yillarda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida klubda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi muvaffaqiyatlarda Ochil Ortiqov, Chori Julliyev, Sharof Toshtemirov, Faxriddin Eshboltayev singari xodimlarning zamon talablariga mos faoliyati, shuningdek ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ezgu ish hamda tashabbuslarga bosh-qosh bo'layotgan klub rahbariyatining xizmatlari ham alohida o'rin tutadi.

Akbar ALLAMURODOV

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

YOSHLAR KAMOLOTI YO‘LIDA



Yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol, intellektual salohiyatli hamda ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining asosiy vazifalaridan biridir. Bu o‘ta muhim jarayonni tashkilotning Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Sardoba tumani o‘quv sport-texnika klubi jamoasi ham muvaffaqiyat bilan uddalab kelmogda.

Xususan, bugungi islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda Yoshlar ishlari agentligi, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida o'tkazilayotgan tadbirlar shular sirasidandir.

Ayni paytda mazkur sport-texnika klubi jamoasi tomonidan o'quvchi-yoshlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, klubda faoliyat ko'rsatayotgan sport to'garaklariga jalb etilmoqda.

– Albatta, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, yosh avlodni maʼnan va jismonan baquvvat etib voyaga yetkazish borasidagi ishlarimiz sifatini yaxshilash maqsadida bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda,

– deydi O‘STK
boshlig‘i Shohrux
Nazarov. – Shu munosabat
bilan tashkil etilayotgan
sport musobaqalari yoshlarimizni yanada
ruhlantirmoqda. Bundan tashqari, yoshlar va
aholi orasida harbiy-vatanparvarlik, sog‘lom

turmush tarzini targ'ib qilish hamda klubda faoliyat olib borayotgan sport turlariga jalb etish borasida ham muayyan ishlar olib borilmoqda.

Shu kunlarda klub qoshida uchta sport seksiyasi mavjud bo'lib, ularda 50 nafarga yaqin iqtidorli yosh muntazam shug'ullanib kelmoqda. O'z nabvatida, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish maqsadida turli musobaqalar o'tkazilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, birinchidan, sportning texnik va amaliy turlariga yoshlarni imkon qadar ko'proq jalb etish bo'lsa, ikkinchidan, nufuzli musobaqalarda ularning faol ishtirokini ta'minlashdan iborat. Shu bois musobaqalarda qatnashgan sportchilarimiz respublika bosqichida viloyatimiz sharafiga himoya qilmoqda. Masalan, shu yilning 27-aprel kuni Olmaliq shahrida o'tkazilgan motokross bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionati va birinchiligining uchinchi bosqichida klubimiz jamoasi faxrli 2- va 3-o'rinlarni egallab, shohsupaning yuqori pog'onasidan joy oldi.

Shu kunlarda tashkilotda “B”, “BC”, “CE” toifali haydovchilar tayyorlash, shuningdek qayta tayyorlash va malaka oshirish ishlari ham reja asosida amalga oshirib kelinmoqda.

O'z navbatida, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda bo'lajak haydovchilarning malakasini oshirish maqsadida barcha zarur sharoitlarning mavjudligi ham xodimlarning samarali mehnat qilishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratmoqda.

Akbar ALI



34 yilligi

“Vatanparvar” tashkiloti Sardoba tumani o‘quv sport-texnika klubi jamoasi siz, aziz yurtdoshlarimizni mamlakatimiz mustaqilligining 34 yillik bayrami bilan samimiy tabriklaydi. Yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo‘lidagi samarali ishlaringizda ulkan zafarlar yor bo‘lsin!

Qahramonlar nomi barhayot

OPA, O'LGANIM YO'Q, iztirob chekma!



Surxondaryoning tog'li hududlarida Vatanimizga bostirib kirishga uringan terrorchilarga qarshi janglarda qahramonlarcha halok bo'lgan katta leytenant Kamoliddin TOSHPO'LATOV hikoyasi

Farg'ona, yo'l oldim orzu ortidan,
Harbiy litsey tomon yelgan kunlarim
Va Toshkent qo'mondon bilim yurtida
Jasorat darsini yodlab tunlari.

Menga qanday ishonch, menga qanday yuk,
Yigirma besh yoshda mas'ul vazifa.
Komandir bo'ldim men, vaqt esa quyun,
Asli safda bo'lmas hech bir toifa.

Bir yovga yerlarni tishlatib qo'ysam,
Uyi to'zg'imagay million jonning.
Vatan, men sodiqman, o'zingga qasam,
Asli shu bo'ladi sharti iymonning!

Jasoratim so'zlab kelar maqtangim,
Borsam bir so'zlashib, choylashar edim.
Ammo O'zbekiston osmonlarining
Tinchin buzgan itlar yovlashar edi.

Opa, tashlab qo'yma bolalarimni,
Bilaman, Vatan ham tashlab qo'ymaydi.
Ammo bilasan-ku, odam degani
Yaqinlar mehriga sira to'ymaydi.

Bir kun Kamoliddin Toshpo'latovni
Kim bo'lgan, desalar, boshing mag'rur tut!
Opa, ey yagona sadoqatligim,
Sen qayg'uni unut, sen g'amni unut!

Men senga osuda hayot qoldirdim,
Bir tomchi yosh to'ksang, rozi bo'lmasman,
Men Umid, Mirkomil bo'lib yashayman,
O'lgan emasman, yo'q, aslo o'lmasman!

Toki omon bo'lsin Tepaqiyotim,
Salomat yashasin shahrim Namangan.
Toki omon bo'lsin yashnagan vodi,
Toki omon bo'lsin O'zbekiyurt – Vatan!

Qara, Vatan omon, hayot osuda,
Qara, yashamoqdan bir olam ma'no.
Meni o'ldi dema, iztirob chekma,
Ey mening jon opam, azizam – Ra'no.

Opa, issiq nonni juda sog'indim,
Sog'indim Namangan ko'chalarini,
Tip-tiniq osmonni, yashil maysani,
Bolalarning chuchuk tilchalarini.

Va buning baridan ulug'roq niyat –
Sog'indim Vatanga tinchlikni, erkni.
Yurtga yov kirmoqchi bo'lsa, er yigit
O'tirar edimmi qochib, berkinib.

Yurakka o't tushdi! "Qay yerda bo'lmay,
Vatan uchun fido jonim ham, toki
Eng kuchli qalqoni o'zim bo'larman,
Toki buzilmasin onamning xoki!

Toki do'stlarimning dasturxonida
Otalar tinchlikning nonini tatir.
Toki qizlar zilol ariq yonida
Sevganidan olar gulmi yo atir".



Ma'mura ZOHIDOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan
farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
departamenti – "Vatanparvar" birlashgan
tahririyatining kompyuter markazida
sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida 2008-yil
6-iyunda 0535 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Dilnoza Meliq'ziyeva
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-6008
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 318 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya